



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda На посты

2023-yil
13-aprel
payshanba

№ 15 (4605)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan /

Web-site: www.postda.uz /

E-mail: info@postda.uz



«KECHIKTIRIB BO'LMASDI!»

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat davomida turli vaziyatlarga duch kelishadi.

Kuni kecha Dono Sharifboyeva Toshkent shahar IIBning internetdagi Facebook sahifasida «Aholi bilan muloqot» guruhiga yozib, unga yordam bergan YPX xodimiga o'z minnatdorligini bildirdi. Shoshilinchda ayol osoyishtalik posbonining ism-sharifini, qaysi bo'limda faoliyat olib borishini so'rashga ulgurmagan. So'ngra IIBga kelib, sodir bo'lgan voqeani batafsil aytib berdi.

2

QOSIMOVDAN YAXSHI TASHABBUS

Joriy yil boshida Jizzax viloyati Do'stlik tumanidagi 1-sonli umumta'lim maktabida tuman IIB rahbari tashabbusi bilan vatanparvarlik va huquq to'g'aragi faoliyati yo'lga qo'yildi. To'g'arakka ta'lim muassasasining yuqori sinf o'quvchilari orasidan kelajagini huquqni muhofaza qiluvchi organlar safida ko'radigan 20 nafar o'g'il-qiz tanlab olindi.



13

UNUNG JASORATI UNUTILMAYDI



1999-yil 30-mart kuni «Sarimoy» YPX maskanida xizmat vazifasini o'tayotgan xodimlar avtobus saloniga chiqib, yo'lovchilarning hujjatlarini tekshirishni boshlashdi.

8

«ОПРАВДАЮ ВЫСОКОЕ ДОВЕРИЕ»



10

O'ZBEK XALQINING OTASHIN SHOIRI



O'zbek xalqining otashin shoiri, ulug' adibi G'afur G'ulom 1903-yilning 10-mayida Toshkent shahrida tavallud topgan.

24

**Inson qadri uchun****«KECHIKTIRIB BO'LMASDI!»***(Davomi. Boshlanishi 1-betda).*

– Men bozorda edim. O'sha yerdan qizimga qo'ng'iroq qildim, lekin u javob bermadi. Keyin kuyovimga qo'ng'iroq qildim – yuragim negadir bezovta bo'la boshladi... Keyin nabiram kuyib qolganini ma'lum qilishdi. Men darhol ularning yoniga oshiqdim, – deydi u.

Ayolning so'zlariga ko'ra, uning 2 yosh-u 8 oylik nevarasi kuyib qolgan va hushini yo'qotgan. Bolani zudlik bilan shifoxonaga olib borish kerak edi.

– Mashinada ketdik. Shaharda tig'iz vaqt. Yo'llar tirband. Haydovchilar o'tkazib yuboray demasdi. – Birdan patrul mashinasini ko'rib qoldim, uning yoniga borib to'xtadik. Nimalar deganimni hozir eslay olmayman... Xodim avtomobil saloniga nazar tashlab, nabiramning ahvolini ko'rди va darhol mashinasi-

ning ortidan borishni aytdi. Uning yordami bilan bir necha daqiqa ichida kasalxonaga yetib borishga muvaffaq bo'ldik.

Ichki ishlar organi xodimining tezkor qarori tufayli og'ir ahvoldagi nabiramning hayoti saqlab qolindi. Undan cheksiz minnatdorman. Mana shunday fidoyi xodimlar bor bo'lsin. Bu xodimning o'z vaqtida qilgan tezkor harakati hamkasblariga o'rnak bo'ladi, albatta, – deydi bolajonning buvisi.

IIBB YHXB YPX brigadasi 3-batalyon 3-safarbarlik guruhi inspektori, kichik serjant Farruh Choriqulovning aytishicha, u avval ham bu kabi holatlar haqida hamkasblaridan eshitgan va shu bois o'zini yo'qotib qo'ymay, to'g'ri qaror qabul qilgan.

– Shayxontohur tumani Nurafshon ko'chasida xi-



zmat olib borayotganimizda yonimga bir mashina kelib to'xtadi. Nabirasi tibbiy yordamga muhtojligi sababli kuchli hayajonga tushgan ayol uni tezroq Chilonzorda joylashgan shifoxonaga

yetkazish zarurligini aytib, yordam so'radi. Ko'chalar nihoyatda tirband edi, haydovchilar ularga zo'rg'a yo'l berishardi... Lekin kechiktirish mumkin emasdi. Odamlarning chin qalbdan samimiy minnat-

dorligi yanada fidoyilik bilan xizmat qilish uchun rag'batdir, – deydi kichik serjant Farruh Choriqulov.

O'z muxbirimiz.*Toshkent shahri.***Konsepsiya – amalda****EZGU MAQSAD YO'LIDA**

Mamlakatimizda «Inson qadri uchun» ezgu tamoyili asosida aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Band bo'lmagan aholi qatlamlarini kasb-hunarga o'qitish va yo'naltirish ishlariga alohida e'tibor qaratilayotgani fikrimizning dalilidir.



Jahon tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvardan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda tashkil etilgan «Ishga marhamat» monomarkazlarida minglab fuqarolarimiz zamonaviy kasb-hunarga o'qitilib, ularning bandligini ta'minlashga yaqindan ko'maklashilmoqda.

Shuni ham aytib o'tish joizki, ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan aksariyat xodimlar oilali bo'lib, 60 mingdan ortiq oilalar-

da 120 mingdan ziyod farzandlar tarbiyalanmoqda. Shu bois, xodimlarning oila a'zolari bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini maqsadli tashkil etish bo'yicha ham loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlari, harbiy xizmatchilari, ishchi va xizmatchilar, pensionerlar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022-yil 19-noyabrda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan imzolangan «O'zaro hamkor-

lik memorandum» doirasida respublikamizning barcha viloyatlarida «Ishga marhamat» monomarkazlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Monomarkazda jami 28 turdagi kasb-hunar bo'yicha, jumladan, xizmat ko'rsatish va servis, texnik sohalar, xorijiy tillar kurslari, raqamli texnologiyalar, umumqurilish sohalar, tadbirkorlik asoslari, zargarlik, imo-ishora tili kurslari mavjud.

Hozirgi kunda 150 dan ortiq xodimlarning oila a'zolari yo'llanmalar asosida «Ishga marhamat» monomarkazlarida bepul tahsil olmoqda. Ulardan 25 nafari 2-3 oylik dasturni o'z ichiga olgan kurslarni yakunladi, 7 nafari tikuvchilik, qandolatchilik, sartaroshlik yo'nalishlarida uy sharoitida o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi va bugungi kunda ushbu kasb-hunari ortidan daromad olmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, Qorovul qo'shinlari qo'mondonligida xizmat olib boruvchi besh nafar xodim xizmatdan tashqari paytda ushbu monomarkazlarda kasb-hunarga o'qimoqda.

Maqsadimiz – ichki ishlar organlari xodimlari, ishchi va xizmatchilari, pensionerlari hamda ularning mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan oila a'zolarini kasb-hunarga o'qitish orqali bandligiga ko'maklashishdir.

Nargiza MIRJALOLOVA,
podpolkovnik.**YOSHLAR –
YURTIMIZ KELAJAGI**

Yoshlar – yurtimiz kelajagi, ertangi kunimiz egalari. Ularning hech kimdan kam bo'lmagan sharoitlarda o'sib-ulg'ayishi, zamonaviy bilim va kasb-hunar sirlarini puxta o'zlashtirishi, iste'dod va salohiyatini keng namoyon etishi uchun imkoniyat yaratish yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar asosini tashkil etadi.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 141-, 169- hamda 192-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari bilan IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi rahbariyatining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda asosiy e'tibor, akademik litseyda o'qishga munosib nomzodlarni jalb etishga qaratildi. Uchrashuvda o'quvchilarga o'quv dargohida yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma'lumot berilib, litsey hayotiga bag'ishlangan videolavhalar namoyish qilindi. Bu kabi tadbirlar poytaxtimizning boshqa hududlarida ham davom ettirilmoqda.

O'z muxbirimiz.



Ислоҳот ва самара

ИНСОН ВА ШАЪНИ — ОЛИЙ ҚАДРИЯТ

Сўнги йилларда мамлакатимизнинг тергов ва суд-ҳуқуқ органлари тубдан ислоҳ қилиниб, фуқароларнинг қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қиладиган, фақат жазолаш эмас, хато қилганни тўғри йўлга солиш мезонларига асосланган тизимга айлантиришга катта эътибор қаратилаётганини эътироф этишимиз керак.

Айтмоқчиманки, бу борадаги дастлабки қадамлар, яъни инсон қадр-қимматини улуғлаш сиёсати илгарироқ бошланган. Хусусан, давлатимиз раҳбарининг 2017 йил 30 ноябрдаги «Суд-тергов фаолиятида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари кафолатларини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги фармони биз хизмат олиб бораётган тизимда жуда катта ижобий ўзгаришларга муҳим асос бўлди. Ушбу фармон билан жиноят процесси иштирокчилари ёки уларнинг яқин қариндошларига нисбатан қийноққа солиш, психологик ва жисмоний тазйиқ ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёхуд қадр-қимматни камситувчи муомала турларини қўллаш тақиқланди.

Шунингдек, мавжуд далиллар мажмуи билан тасдиқланган ҳоллардан ташқари, жабрланувчи, гу-

воҳ, гумон қилинувчи, айбланувчи, судланувчининг тахмин, фараз ёки миш-мишларга асосланган кўрсатувларидан олинган ҳамда тегишли равишда юридик кучга эга бўлмаган маълумотлардан жиноят ишлари бўйича далил сифатида фойдаланишга йўл қўйилмайди.

Фарғона вилояти ИИБ ҳузуридаги Тергов бошқармасида ҳам шу йўналишдаги ишлар тизимли равишда амалга оширилмоқда.

Тергов жараёнидаги махсус хоналарнинг ташкил этилиши фуқароларнинг, хусусан, вояга етмаган жабрланувчи ва гувоҳларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини судга қадар иш юритувда ҳимоя қилишни кучайтирди, оғир ва ўта оғир жиноятларни фош этиш ва тергов қилиш самарадорлигини оширди. Мазкур хоналар гумон қилинувчининг жабрланувчи ва гувоҳлар, жумладан, болалар билан

тўғридан-тўғри алоқасини чегаралаган ҳолда сўроқ, шахсни таниш ва бошқа тергов ҳаракатларини олиб боришга имкон яратди. Бу

ташкил этилаётгани ҳам фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ишончли ҳимоя қилишда муҳим аҳамият касб этмоқда. Мухтасар айтганда,



эса жиноят процессининг вояга етмаган иштирокчиларини руҳан жароҳатламасликда муҳимдир.

Тергов бошқармаси раҳбарлари томонидан фуқаролар мурожаатларини жойида ўрганиш ва қонуний ечим топиш мақсадида қабуллар

соҳа ходимлари ўз фаолиятларини адолат ва шаффофлик мезонларига таянган ҳолда ташкил этишмоқда.

Мансур САТТОРОВ,
Фарғона вилояти ИИБ
бошлигининг ўринбосари,
полковник.



Биз коррупцияга қаршимиз

Жамият ривожига тўсиқ бўлаётган коррупцияга қарши муросасиз курашиш давлат сиёсатидаги устувор йўналишлардан саналади. Айтиш мумкин, айтиш мумкин, жорий йилнинг ўтган 3 ойи мобайнида бошқарма ходимлари ҳамда шаҳар-туманларда хизмат олиб бораётган барча ЙПХ инспекторлари иштирокида тарғибот ишлари олиб борилди. Коррупцион ҳолатларга қарши курашишнинг самарали усуллари амалиётга



Вилоят ИИБ ЖХХ ЙҲХБ мисолида айтишимиз мумкин, жорий йилнинг ўтган 3 ойи мобайнида бошқарма ходимлари ҳамда шаҳар-туманларда хизмат олиб бораётган барча ЙПХ инспекторлари иштирокида тарғибот ишлари олиб борилди. Коррупцион ҳолатларга қарши курашишнинг самарали усуллари амалиётга

кенг татбиқ этилди. Ана шундай бир пайтда айрим қоидабузарлар томонидан соҳа ходимларига турли ноқонуний йўллар орқали пора таклиф этиш билан боғлиқ 4 та ҳолат кузатилди.

Фуқаролар ҳаракати иштирокчиси сифатида йўлларда қоидабузарлик содир этар экан, ушбу хатти-ҳаракати учун жавобгарлик кўзда ту-



ТАРҒИБОТ ТАДБИРЛАРИ САМАРАСИ

тилганини, жарима тўловлари мавжудлигини жуда яхши билишади. Аммо айрим ҳайдовчилар ЙПХ инспекторларидан қоидабузарлигини «босди-босди» қилишни сўраб, пора таклиф этишади. Шу тариқа маъмурий ҳуқуқбузарликдан жиноий жавобгарлик томон қадам босишади.

Жорий йилнинг 18 март

куни вилоят ИИБ ЖХХ ЙҲХБ ЙПХБ ходимлари – катта сержантлар Учқун Хўжаев ҳамда Зарифжон Ибодуллаев Кармана туманида хизмат олиб боришаётган эди. Улар мазкур ҳудудда ҳаракатланиб келаётган «Lacetti» русумли автомобилни тўхтатиб, ҳайдовчининг ҳужжатларини кўздан кечиришади. Шунда ундан

спиртли ичимлик ҳиди анқиб тургани инспекторларда шубҳа уйғотади. Алкотестер кўриги эса шубҳа ўринли эканлигини – ҳайдовчи маст ҳолатда автомашина бошқариб келаётганлигини яққол исботлаб берди. Қоидабузарга нисбатан тегишли тартибда маъмурий баённома расмийлаштирилиб, автомашина вақтинчалик сақлаш учун жарима майдончасига жойлаштирилди.

Асли қорақалпоғистонлик бўлган 30 ёшли бу фуқаро юқоридаги қоидабузарлиги билан чекланмади. У ЙПХ инспекторларига 4 миллион сўм миқдоридagi пул маблағларини пора тариқасида бериб, автомашинасини жарима майдончасидан олиб кетмоқчи бўлди. Унинг бу ҳаракати жиноят эканлиги ҳақидаги огоҳлантиришларию уқтиришлари қоидабузарга таъсир қилмади. У инспекторга пора беришга уринаётган вақтда ИИБ ШХББнинг Навоий вилояти бўйича бўлими ходимлари томонидан қўлга олинди.

Дилрабо АБДУҲАМИДОВА,
сафдор.
Навоий вилояти.

Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми кодексида:

Ходимлар касбий маданият қоидаларининг қуйидаги асосий талабларига амал қилишга мажбурдир:

ўз хизмат вазифаларини виждонан, ҳалол ва юксак профессионал даражада бажариш, расмиятчилик, сохтакорлик ва суистеъ-молчиликка йўл қўймаслик;

ички тартиб қоидаларга, шунингдек, телефонда сўзлашиш ва кийиниш маданиятига қатъий риоя этиш.

Противодействие незаконному обороту наркотиков


СЕМЕЙНОЕ ВОСПИТАНИЕ ПРОСТО НЕОБХОДИМО!

Заместитель начальника Управления борьбы с незаконным оборотом наркотических и психотропных веществ Службы уголовного розыска Оперативно-розыскного департамента МВД Республики Узбекистан, начальник отдела по контролю психотропных веществ подполковник Ахмаджон Матлюбов убежден в том, что самым верным способом уберечь ребенка от тлетворного влияния улицы является правильное семейное воспитание.

Ахмаджон Сайфуллаевич, представитель известной династии правоохранителей, был назван в честь дедушки, Ахмадхона Матлюбова, и пошел по стопам сотрудника органов внутренних дел, который плодотворно работал на руководящих должностях в УВД Самаркандской и Джизакской областей, Центральном аппарате МВД Узбекистана, а дядя, генерал-лейтенант в отставке Баходир Ахмедович Матлюбов, на протяжении ряда лет возглавлял Министерство внутренних дел Республики Узбекистан. Сам А. Матлюбов, как и многие сотрудники органов внутренних дел, добившиеся значительных успехов в служебной деятельности, начинал с азов, и становление конечно не было легким. Но стремле-

ние к профессионализму и мастерству являлось для него приоритетной задачей. Начинать он оперативным уполномоченным ГУВД г. Самарканда, прошел ступени профессионального роста, занимая ответственные должности по линии оперативной деятельности. Сегодня, имея высокую результативность в работе, является одним из руководителей УБНОН МВД республики.

– Воспитание не может строиться на одних только запретах, – рассказывает А. Матлюбов. – Родители должны вести диалог с детьми, знать, какое зло на самом деле представляют из себя наркотики, какое бывает поведение и симптомы при употреблении наркотиков, психотропных



веществ, которые среди молодежи являются чем-то «модным», «привлекательным». К сожалению, подросток, раз попробовав, в большинстве случаев возвращается к повторному их употреблению. Последствия приема наркотиков, в том числе психотропных веществ, страшны: нарушается деятельность головного мозга, утрачивается логика, изменяется процесс мыш-

ления. Наркотик включается в процесс обмена веществ в организме и становится необходимым для поддержания его жизнедеятельности. Защищаясь от ядовитого действия наркотика, организм стремится нейтрализовать его, поэтому при каждом последующем приеме требуется все большая доза. Для того, чтобы достать наркотик, необходимо все большее количество

денег. Наркоман встает на путь добывания средств незаконным путем – с помощью краж, вымогательств, перепродажи наркотиков.

В борьбе с этим негативным явлением нам очень важна поддержка родителей, махалли, общественности, а преступники ответят по закону.

Что и говорить, рабочий день у подполковника Ахмаджона Матлюбова весьма насыщенный, и при всем желании мы не можем раскрыть ее оперативную составляющую. Скажем лишь, что большую его часть занимает аналитическая деятельность, но в стремлении решить поставленные задачи он прилагает максимум усилий, являясь примером для коллег и подчиненных. Работа его ответственная и важная – противостояние одному из зол современности, но есть опыт, есть профессионализм, а это значит, что борьба продолжается.

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент
«На посту».

Кашкадарьинская область

В условиях глобальной цифровизации интернет стал весомой составляющей, важнейшим средством нашего взаимодействия с миром. При этом мы должны четко осознавать, что во Всемирной сети действуют и злоумышленники, преследующие корыстные цели.

В последнее время в киберпространстве совершается немало деяний, связанных с мошенничеством, хищением денежных средств со счетов или пластиковых карт граждан. В поисках потенциальных жертв, преступники орудуют в социальных сетях, вступают с поль-

НЕ ПОДДАТЬСЯ ОБМАНУ



зователями в переписку. Нередко доверчивые люди, поддавшись обману, предоставляют незнакомым

лицам сведения о своих банковских платежных картах, иную конфиденциальную информацию, позволяющую получить доступ к управлению карт-счетом и т.д.

...Жительница Кукдалинского района М. Т. обратилась с заявлением в органы внутренних дел, в котором указала, что неизвестный снял с ее пластиковой карты 1 360 000 сумов. В ходе оперативно-розыскных мероприятий установлено, что данное деяние совершил ее земляк С. А. Транзакция была совершена с помощью телефона Samsung A51 через мобильное приложение «Payme». По данному факту возбуждено уголовное дело, ведется следствие.



В нынешних реалиях сотрудники органов внутренних дел регулярно проводят с гражданами профилактические беседы о необходимости проявления бдительности при осуществлении покупок на каналах продаж, созданных, к примеру, в Telegram, на платформе OLX и др., осведомляют о наиболее распространенных путях совершения рассматриваемого вида преступлений. Граждан просят не сообщать пин-коды, поступающие в виде СМС, пароли пластиковых карт незнакомцам. Поясняется целесообразность регулярного ознакомления с информацией, публикуемой на Telegram-канале Cyber-102, в целях получения достоверной информации о киберпреступлениях.

Ирода РАСУЛОВА,
подполковник.





Siflatli ta'lim — taraqqiyot poydevori

OCHIQ VA SAMIMIY RUHDA

Bugun yurtimizda yosh avlodning puxta bilim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarni egalashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, so'nggi paytlarda yoshlar orasida IIV tasarrufidagi ta'lim muassasalariga kirish istagi anchayin yuqori ekani ularning qalbida vatanparvarlik tuyg'ulari jo'sh urayotganidan darak beradi.

Yaqinda Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi tashabbusiga ko'ra, o'quvchi yoshlar va ularning ota-onalari bilan uchrashuv tashkil etildi. Yuzma-yuz muloqot chog'ida ular-

ga IIV Navoiy akademik litseyi hamda Nukus «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseyida o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, qabul komissiyalarining faoliyati, shuningdek kirish imtihonlari bo'yicha batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir jarayonida viloyat IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik SH. Sadikov so'zga chiqib, IIV Navoiy akademik litseyi o'quvchilarining respublika hamda jahon miqyosida erishayotgan ulkan yutuqlari haqida gapirdi. U ichki ishlar organlari sohasiga qiziquvchi, kelajakka teran nigoh bilan nazar tashlaydigan, bilimga chanqoq yoshlarni ushbu litseyga o'qishga taklif qildi.

Bundan tashqari, uchrashuv qatnashchilariga IIV ta'lim muassasalarini faoliyatidan hikoya qiluvchi bukletlar tarqatildi. Ochiq va samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda mehmonlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga atroflicha javob olishdi. Tadbir davomida ishtirokchilarga vazirlik ta'lim muassasalarini hayoti aks etgan videoroliklar namoyish qilindi.

Muxtasar aytganda, o'tkazilayotgan bu kabi targ'ibot tadbirlari sohaga qiziquvchan vatanparvar yoshlar safining kengayishiga, ota-onalar esa IIV ta'lim muassasalarini haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlariga xizmat qilishi shubhasiz.

O'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.



Vatan manzumasi



**IBROYIM
YUSUPOV**

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Ibroyim Yusupov 1929-yil 5-mayda Chimboy tumanida tug'ilgan.

Ijodkorning «Baxt lirikasi», «Kunchiqar yo'lovchisiga», «O'ylar», «Yeti navo», «Dala orzulari», «Ko'ngil ko'ngildan suv ichar», «To'maris», «Ilhom», «Tashvishlarga boy dunyo», «Tuzli shamollar», «Ko'ngildagi keng dunyo», «Bekligingni buzma sen...», «Har kimning o'z zamoni bor» nomli she'riy kitoblari va «Tanlangan asarlar» to'plamlari nashr etilgan.

Ibroyim Yusupov «El-yurt hurmati», «Do'stlik» ordenlari bilan ham mukofotlangan.

Uning she'rlari qozoq, ukrain, belorus, gruzin, latish, bolgar va boshqa xalqlar tillariga tarjima qilingan. Shoir 2008-yil 24-iyulda olamdan o'tgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarori bilan Nukusda Ibroyim Yusupov haykali va uning nomidagi ijod maktabi barpo etildi.

VATAN

Sen, ey amri vojib, oliy hukmdor,
Ne qudratsan, qalbg'a hokimlik etgan?
Biz tugul, ne ulug', dono shoirlar
Sening ta'rifingni aytolmay ketgan...

Bag'ringda qancha xalq — mardonalar bor,
Ular g'ururini ko'tarolmas tog'.
Biroq sensiz ular — qanotsiz shunqor,
Qaynoq mehri senga baxshida har chog'.

Mehnat va aqldan obro'si baland,
Ulug'lar yashaydi bag'ringda omon.
Biror nomard senga berar bo'lsa pand,
Chaqirsang, «labbay» deb kelar shu zamon.

Biri otdan tushib, biri — taxtidan,
Gunohkor bolangday koringga yarar.
«Vatan» desa olov to'smas shaxtidan,
O'qqa kiprik qoqmay tippa-tik qarar!

QATRALAR

Ko'ngil — yo'l bo'yida o'sgan bir eman,
Tuyg'u — buloq aytar shan rivoyatlar.
Turfa xil qurol-u turfa do'l bilan
Tanasiga yozuq erur dastxatlar.
* * *

— Tog'ning qora toshi, yig'laysan nega?
Sen kimdan xafasan — dil-bag'ring giryon?
— E voh, hozirgina toshdillar bunda
Haqiqatni qildi rosa toshbo'ron...
* * *

To'g'ri kelmas sening aql toshingga,
Har kimning o'zicha o'lov toshi bor.
Yengil kelsang, u-ku kular ustingdan,
Og'ir kelsang — yog'ar qabog'idan qor...



BILIMLAR MUSTAHKAMLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, IIV Jamoat xavfsizligi departamenti va Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan edi.

Shunga binoan, universitetning «Pasport tizimini huquqiy ta'minlash» yo'nalishida ta'lim olayotgan 2-bosqich-

ning 134-guruh kursantlari Olmazor tumani IIOFMB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limida «Ichki ishlar organlari migratsiya va fuqaro-

likni rasmiylashtirish bo'linmalari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish» bo'yicha amaliy mashg'ulotda qatnashdi.



Tuman IIOFMB M va FRB xodimlari tomonidan kursantlar fuqarolarga shaxsini tasdiqlovchi hujjatni zamonaviy elektron texnika vositalari yordamida rasmiylashtirish jarayonlari bilan tanishtirildi. O'z navbatida, kursantlar ham universitetda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda o'z ko'zlari bilan ko'rib, ko'nikma hosil qilishdi.

O'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



✓ **Безопасность дорожного движения**

ЖИЗНЬ ЧЕЛОВЕКА – БЕСЦЕННА

В стране с каждым годом растет количество автотранспортных средств. В связи с этим все больше актуализируется вопрос обеспечения безопасности дорожного движения.

Управлением безопасности дорожного движения МВД Республики Каракалпакстан в данном направлении осуществляется целенаправленная деятельность. В результате принятых организационно-практических мер в течение последних трех месяцев текущего года количество ДТП снизилось на 24,1%. Соответственно уменьшилось количество пострадавших в результате ДТП на 19,7%, а количество погибших – на 46,1%.

Анализ свидетельствует, что 41,3% дорожно-транспортных происшествий свя-

заны с ситуациями наезда на пешеходов. В результате погибли 3 человека, 23 – получили травмы различной степени тяжести.

К примеру, в феврале нынешнего года гражданин Ж. К. ехал на автомобиле марки «Дамас» по улицам Нукуса. Из-за превышения скорости и невнимательности Ж. К. сбил на нерегулируемом пешеходном переходе студента колледжа. Пешеход был госпитализирован в реанимационное отделение центральной больницы.

В марте месяце житель Конликульского района



С. С., управляя автомобилем «Нексия», на дороге 4Н88 сбил Н. П., 1974 года рождения. В связи с полученными травмами гражданин был срочно доставлен в реанимационное отделение районной больницы.

– Конечно, в том, что на дорогах случаются ДТП, следует винить не только водителей. Часто пешеходы не соблюдают ПДД, что становится причиной несчастных случаев. В связи с этим в образовательных учреждениях, организациях, махаллях проводится информационно-разъяснительная работа. Так, в течение трех месяцев организовано в махаллях – 340, в школах – 422, на предприятиях и в организациях свыше 260

профилактических мероприятий. Среди граждан раздаются четыре вида буклетов, подготовленных УБДД, – говорит заместитель начальника УБДД СОБ МВД Республики Каракалпакстан подполковник Еролат Мусагалиев.

Стоит отметить, что особое внимание уделяется усилению профилактической работы среди детей, повышению их знаний о ПДД.

– В целях обеспечения эффективности преподавания Правил дорожного движения в 68 общеобразовательных школах городов и районов созданы кабинеты безопасности дорожного движения.

Также организованы площадки обучения дорожному

движению в 34 махаллях и 54 дошкольных образовательных организациях. Каждую пятницу в созданных кабинетах и на площадках инспекторы обучают детей ПДД. Согласно разработанному плану проводятся мероприятия «Внимание: дети!», «Внимание: пешеход!», – говорит младший инспектор пресс-группы Управления безопасности дорожного движения рядовой Турсинбой Отемуратов. – Кроме того, агитационно-разъяснительная работа ведется и в социальных сетях интернета.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
корреспондент
«На посту».

Республика Каракалпакстан.



✓ **Женщины в погонах**

ПОДЕЛИСЬ СОКРОВЕННЫМ

В минувшем году удалось уладить конфликты в более чем 350 семьях Тайлакского района. За этим показателем стоит огромный труд инспектора по вопросам женщин, представителей махаллей, общественности.

Капитан Наргиза Хамраева в органах внутренних дел служит с 2008 года, практически сразу после окончания факультета истории Самаркандского государственного университета. С введением в ОВД должности инспектора по вопросам женщин по рекомендации руководства она, как опытный сотрудник, была переведена в родной Тайлакский район, назначена на данную должность.

– Особое внимание уделяем женщинам, однажды оступившимся. Если в минувшем году на профилактическом учете состояло 19 женщин, то в нынешнем году их всего пять. На учете службы пробации 22 женщины. Для района, где про-



живает более 104 тысяч женщин, это хороший результат. Стремимся выстроить с подопечными доверительные отношения, чтобы они могли поделиться сокровенным, сказать о том, какое содействие им необходимо – социальная поддержка, материальная помощь или же консультация квалифицированного психолога, направленная на

налаживание взаимоотношений с родными и близкими.

В районе ведется целенаправленная работа по защите прав женщин, пострадавших от семейного насилия. В течение первого квартала текущего года здесь выдали 25 охранных ордеров.

– Проводим индивидуальные беседы в неблагополучных семьях,

объясняем, что грозит тем, кто притесняет женщин, – продолжает наша собеседница. – В свою очередь, консультируем женщин, информируем, что в стране действует круглосуточный телефон доверия 1146, набрав который они могут сообщить о насилии, получить необходимую помощь, в том числе охранный ордер на государственную защиту от лиц, притесняющих их.

Служебные обязанности, конечно, накладывают отпечаток на характер человека. Тем не менее, при всей строгости на работе и постоянном грузе ответственности, Наргиза Хамраева остается хранительницей домашнего очага. Она признается, что семья – ее опора. Несмотря на должность, форменную одежду, прежде всего она – женщина, во главу угла всей жизни ставящая семью.

– У меня двое замечательных детей, которых мечтаю выучить. Хочу гордиться ими, радоваться их достижениям. Для всех нас дети – главное, то, ради чего мы живем, – подчеркивает Наргиза.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту».

Самаркандская область.



Профилактика хизмати

ХАЛҚ ИШОНЧИНИ ҚОЗОНИШ – БАХТ

Тонг сахарда худудий профилактика инспектори, лейтенант Бобурбек Остонакуловга «Эшонгузар» қахвахонасининг тунги қоровули мурожаат қилди.

– Унинг айтишича, велосипедни кимдир ўғирлаб кетибди. Лейтенант вақтни бой бермасдан, ҳолат юзасидан Пахтаобод тумани ИИБ раҳбариятига хабар берди ва аризачи билан бирга велосипед ўғирланган қахвахона томон кетишди.

Б. Остонакулов ишни қўшни дўконда ўрнатилган видеокузатув камераларидаги қайдларни кўришдан бошлади. Тез орада тасвирда ўрта ёшли бир эркак қахвахона деразасидан ичкарига мўралаб, сўнгра отвёртка билан ромни очиб бинога кираётгани намоён бўлди. Бир неча дақиқа ўтиб, у велосипедни олиб чиқди, филдираклари қулфлангани боис, икки қўллаб кўтарганча узоқлашди. Инспектор қайдни тўхтатиб, тасвири катталаштирди. Унда яқиндагина озодликка чиққан Салимбой савлат тўкиб турарди.

У Салимбойни кўриб айбон бўлди. Бориб аёлидан сўраса, чиқиб кетганини айтди. Орадан ўн дақиқалар ўтиб, узоқдан мамнун кайфиятда келаётган Салимбой кўринди.

У инспекторга кўзи тушиши билан кўлидаги халталарни ерга ташлаб, қочишга уринди. Аммо узоққа бора олмади, зум ўтмай, инспектор гумон қилинувчининг елкасидан маҳкам тутиб турарди.

Кўп ўтмай, ўғирланган ва 100 мингга сотилган велосипед ашёвий далил сифатида қўшни маҳалла фуқаросидан олинди. Салимбой Рашидовга (исм-шарифлар ўзгартирилди) нисбатан эса жиноий иш кўзгатилиб, тергов ишлари олиб борилмоқда.

Бу Пахтаобод шаҳри марказида жойлашган Муазимбой маҳалласида хизмат олиб бораётган профилактика инспектори, лейтенант Бобурбек Остонакулов томонидан жиноятлар «иссиқ изида» фош этилган биринчи ҳолат эмас.

– Худудимизда 2373 нафар киши истиқомат қилади, – дейди лейтенант Б. Остонакулов. – Аҳолининг асосий қисми тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи қўшма корхонада ва қўшни тумандаги қурилишда меҳнат қилади. «Хавфсиз шаҳар» дастури доирасида 70 дан зиёд ташқи кузатув камералари ўрнатилганидан сўнг ҳуқуқбузарликлар сони анча камайди. Табиийки, кўп нарса аҳолининг фаоллигига боғлиқ –



кўпчилик ёрдам беришга ҳаракат қилади, ҳуқуқбузарларни тартибга чақиради.

Бобурбек Остонакулов бўш вақтларида қўл жанги ва миллий кураш билан шуғулланади. Туман ва вилоятда ташкил этиладиган барча мусобақаларда иштирок этади. Унинг жавонидан бир қанча медаллар ва фахрий ёрликлар ўрин олган.

– Мен ўз касбимни севаман, – дейди суҳбат сўнгида лейтенант Б. Остонакулов. – Одамлар орасида бўлиш ва уларнинг қийин дамларида ёрдам бериш – мен учун бахт.

Борис КЛЕЙМАН,
«На посту» мухбири.

Андижон вилояти.

Суратда: лейтенант Бобурбек Остонакуловга меҳнат фахрийси Аҳмаджон Раҳматов билан.

Фахрийлар – фахримиз

ЙИЛЛАР СИНОВИДАН ЎТГАН ҒОЛИБДИР

Ҳаёт ҳеч қачон бир текис кечмайди. Унинг пасту баландликлари, сўқмоқ йўллари бисёр. Бу йўллар кишини синовдан ўтказди, тоблайдди. Бундай синовлардан муваффақият билан ўтган, мақсади сари олға интилган инсонни ҳаёт, албатта, сийлайди. Узоқ йиллар Қашқадарё вилояти ички ишлар органларида хизмат қилган соҳа фахрийси, истеъфодаги подполковник Маҳмуджон Хонов ана шундай инсонлар сирасидан.



1950 йилда Тожикистонда туғилган Маҳмуджоннинг болалик йиллари осон кечмади. Тақдир тақозоси билан ота-онаси ажрашган, унинг онаси тўрт фарзандини олиб Қарши шаҳрига кўчиб келди. Ўша оғир йилларда оилавий шароит туфайли Маҳмуджон икки синглиси билан Сурхондарё вилояти Денов туманидаги мактаб-интернатда ўқишига тўғри келди.

1972 йилда ИИБ Тошкент олий милиция мактабига ҳужжат топшириб курсантлар сафидан жой олди.

Ана-мана дегунча орадан тўрт йил ўтди. Маҳмуджон Хонов соҳадаги илк хизмат фаолиятини Қашқадарё вилояти ИИБ ЖҚБда қидирув

гуруҳи инспектори лавозимида бошлади. Жиноят содир этиб, қочиб кетган ва бедарак йўқолган шахсларни қидириб топиш, жиноятга жазо муқаррарлигини таъминлаш борасида устози – полковник Виктор Живилондан хизмат сирларини ўрганди. Кейинчалик вилоят ИИБ ЖҚБда турли лавозимларда хизмат қилди, жиноятларнинг олдини олиш, рўй берганларини фош этишда бор билим ва маҳоратини ишга солди.

– 1986 йил май ойида Қарши шаҳридаги «Кат» маҳалласида

яшовчи бир фуқаронинг уйида босқинчилик жинояти содир этилди. Хонадон бекаси қўшниси билан уйда ўтирганида босқинчилар ниқобда бостириб кириб, иккала аёлни гиламга ўраб, ўлдириш билан кўрқитиб, пул ва тилладан ясалган заргарлик буюмларини олиб кетади, – дейди биз билан суҳбатда истеъфодаги подполковник Маҳмуджон Хонов. – Воқеа жойига чиқиб, ашёвий далилларни олдик. Улар орасидаги ясама мўйлов эътиборимни тортди. Олиб борилган суриштирувлар давомида бу ашё театрга тегишли бўлиб чиқди. Кейинчалик рус миллатига мансуб бир йигит вилоят театрига такси машинасида келгани, театрга кириб чиққач, мўйлов йўқолгани ойдинлашди. Кўп ўтмай, таксопарк ҳайдовчиси А.П. жиноий шериги билан қўлга олинди.

М.Хонов вилоят ИИБ ЖҚБ Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш бўлимида ишлаб, давлат ва жамоа мулкани ўзлаштириш, талон-торож қилиш билан боғлиқ иқтисодий жиноятларни фош этишга муносиб ҳисса қўшди.

Қаҳрамонимиз ўз соҳасининг билимдони, моҳир изқувар сифатида машаққатли ва шарафли йўлни босиб ўтди. Катта тажриба тўплаб, «Устоз-шогирд» аънана си ривожига муносиб ҳисса қўшди.

Маҳмуджон ака пенсияга чиққанидан сўнг уйда бекор ўтирмади. Ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлаш, жиноятларнинг олдини олиш борасида шогирдларига маслақдош бўлди.

– Бошқа соҳа вакиллари билан фарқли равишда, ички ишлар органларида хизмат қилиш кишидан катта масъулият, матонатни талаб этади, – дейди Қарши шаҳар ИИОФМБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги майор Ибодулло Хусанов. – Юрт тинчлигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшган Маҳмуджон Хоновнинг хизмат фаолияти, ҳаёт йўли кўпчиликка ибрат мактаби бўла олади.

Маҳмуджон ака турмуш ўртоғи Робия опа билан уч фарзандни эл корига ярайдиган инсонлар қилиб тарбиялади. От изини той босар, деганларидек, кенжа ўғил Мақсуд Хонов кўп йиллар вилоят ИИБ ЙҲХБ ЙПХ инспектори лавозимида хизмат қилди, ҳозир нафақада.

Айни кезларда фарзандлари ардоғида, неваралари қуршовида умргузаронлик қилаётган Маҳмуджон ака ўзи яшаётган маҳалланинг энг фаолларидан бири. Ҳуқуқий масалаларда маҳалладошларининг маслаҳатгўйига, суянчигига айланган.

Содиқ РАҲИМОВ,
«Postda» мухбири.

Қашқадарё вилояти.



Саримой воқеалари

УНИНГ ЖАСОРАТИ УНУТИЛМАЙДИ

1999 йил 30 март куни «Саримой» ИПХ масканида хизмат вазифасини ўтаётган ходимлар автобус саломига чиқиб, йўловчиларнинг хужжатларини текширишни бошлашди. Шу пайт ходимлардан бири йўловчилар орасидан қидирувдаги шахсни таниб, уни автобусдан туширмоқчи бўлди. Кутилмаганда қочоқнинг шериги ходимнинг орқасидан тўппонча тираб, уни қўйиб юборишни талаб қилди. Вазият нақадар қалтис эканини англаган ходим унинг талабини бажаришга мажбур бўлди.

Шундан сўнг жиноятчилар автобусдаги йўловчиларни гаровга олиб, Питнак шаҳри томон ҳаракатланишди. Орадан бир неча соат вақт ўтгач, улар ўз режаларини ўзгартиришди: автобусни орқага – «Саримой» ИПХ маскани томонга буришди.

«Саримой» қўрғонида жиноятчиларни қўлга олиш ва гаровдагиларни қутқариш бўйича республика ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари ҳамкорлигида

махсус тезкор тадбир ўтказилди. Бир неча босқичда амалга оширилган тадбир кечгача давом этди. Вилоят ҳудудида қўпуровчилик ҳаракатларини амалга оширмоқчи бўлган ёвуз ниятли кимсаларнинг пинҳона режаси барбод бўлди ва улар қўлга олинди.

Ёвузлик уруғини сочмоқчи бўлган кимсаларга қарши курашишда подполковник Аминбой Тожиев, капитанлар Улуғбек Избостиев, Жуманазар Рўзметов, Ражаббой Матниёзов, старшина Ҳожибой Абдурахмонов, катта сержант Хушнуд Машарипов, сержантлар Одилбек Полвонов, Улуғбек Матқурбонов, Ашурали Сафаров, Давронбек Саидов сингари мард ва жасур йигитлар ҳам фаол иштирок этишди. Тезкор тадбирларда фаол иштирок этган МХХ махсус отряди ходимларидан 3 нафари ҳамда вилоят ИИБ ЙХХБ ходими, старшина Фарҳод Сабилов қаҳрамонларча ҳалок бўлди. Жиноятчиларни қўлга олишдаги фидойилиги ҳамда кўрсатган жасорати учун старшина Фарҳод Сабилов Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонида мувофиқ «II-даражали шон-шараф» ордени билан тақдирланди.



Фарҳод Сабиловнинг хотирасини абадийлаштириш мақсадида Урганч тумани Фойбу қишлоғидаги марказий кўчалардан бирига унинг номи берилиб, ёдгорлик ўрнатилди.

— Касбига меҳр қўйган киши ўзгача ғайрат-шижоат билан хизмат қиларкан, — дейди истеъфодаги майор Жуманазар Рўзметов. — Бунга ҳамкасбим Фарҳод Сабиловнинг хизмат фаолиятида кўп бора гувоҳ бўлганман. У раҳбарият томонидан берилган ҳар

бир вазифани ўз вақтида бажаришга астойдил ҳаракат қиларди. Қолаверса, хизматдошларига жуда меҳрибон, хушмуомала йигит эди. Унинг қисқа бўлса-да, жасоратга йўғрилган ҳаёт йўли ёшларимиз учун ибрат мактабидир.

Турмуш ўртоғининг бевақт ўлими Гулбаҳорни эсанкиратиб қўйди. Икки фарзанд билан юракбағри қон бўлган онаизор кўп ўтмай оғир дардга чалиниб, ҳаётдан кўз юмди. Ота-она меҳрига тўймаган Дониёр ҳамда Элёрбеклар бобоси — истеъфодаги капитан Отабой ака Сабилов қўлида қолди. Йиллар ўтиб, камолга етган фарзандлар сулола давомчилари бўлишга аҳд қилишди. Айни кунда тўнғич фарзанд Дониёр Отабоев Миллий гвардиянинг Хоразм вилояти бошқармаси Урганч шаҳар бўлимида, Элёрбек эса вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология хизмати фаолиятини мувофиқлаштириш бўлинмасида хизмат қилмоқда. Ўз ҳаётини юрт тинчлиги, халқ осойишталигига бахшида этган старшина Фарҳод Сабиловнинг умри фарзандлари тимсолида давом этмоқда.

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.

«SHU SOHANI TANLAGANIMDAN FAXRLANAMAN»

– Yaqinda Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidan bir guruh o'quvchilar ustozlari bilan shahrimizdagi tarixiy obidalarni aylanib yurishganida Shahzod ismli bolaning tutqanog'i tutib, tili orqaga ketib yiqiladi, – deydi viloyat IIB XTTB bo'linma boshlig'i, kapitan Ruslan Akramov. – Shu hududda xizmat olib borayotgan inspektorimiz, leytenant Zarina Samandarova shifokorlar kelgunicha shaxsiy jetoni bilan bolaning jag'ini ochib, birinchi tibbiy yordam ko'rsatadi va uning salomatligi tiklanadi. Yoki kechagina mahalliy sayyohlardan biri ehtiyotsizligi tufayli shaxsiy guvohnomasini tushirib qoldirgan ekan. Leytenant Z.Samandarova uning murojaati asosida zudlik bilan kuzatuv kamerasini ko'rib, hujjatni qayerda tushirib qoldirganini aniqlaydi. Bu xodimimiz xizmatni boshlaganiga endigina sakkiz oy to'layotgan bo'lsa-da, erishgan yutuqlari tahsinga loyiq. U o'tgan oylar davomida o'ndan ortiq xuddi shunday mahalliy va xorijiy sayyohlarga amaliy yordam ko'rsatdi.

Bo'linma boshlig'ining bunday iliq, samimiy so'zlaridan so'ng jamoat tartibini saqlash guruhi inspektori, leytenant Zarina Samandarova xizmat olib borayotgan Buxoro shahrining tarixiy qismi hisoblangan Minorai Kalon hududi tomon yo'l oldik. U mahalliy sayyohlar bilan muloqot qilayotgan ekan. Birozdan so'ng sayyohlar unga minnatdorlik bildirishdi va yo'lida davom etishdi.



Qahramonimizning aytishicha, 2017-yili Buxoro davlat universitetining pedagogika fakultetini tugatgach, Buxoro shahridagi 57-sonli maxsus ko'zi o'zlashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotida psixolog bo'lib ishlagan ekan. Otasi Ikrom aka bir vaqtlar ichki ishlar organlarida

xizmat qilishni xohlagan bo'lsa-da, ammo ba'zi bir sabablarga ko'ra, orzusi armon bo'lgani bois to'ng'ich o'g'lidan umid qilgan ekan. U esa tadbirkorlikni tanlabdi. Shuning uchun Zarina otaning orzusini amalga oshirish niyatida yurgan ekan. Qolaversa, o'zi ham yoshligidan huquq-tartibot xodimasi bo'lish istagida bo'lgan. Buni qarangi, oradan besh yil o'tib, uning orzusi amalga oshibdi.

– Buxoro shahar IIOFMBda inspektor-psixolog lavozimiga tanlov e'lon qilinganini eshitib, – deya Zarinaxon hikoyasini davom ettirdi, – qanot chiqarib, dadamning oldilariga bordim. U kishi xursand bo'ldilar. Keyin turmush o'rtog'im ham rozilik bildirdi. «Til bilgan el biladi», deganlaridek, inglizcha va forschaning bog'chada ishlab yurganimda, bo'sh paytlarim o'rgangandim. Shular sabab bo'ldimi, harqalay, xizmatni boshlaganimga hali olti oy to'lmasidan, rahbariyat hozirgi egallab turgan lavozimimga o'tkazishdi. Ayni paytda turk tilini ham o'rganmoqdaman. Har kuni ertalab formamni kiyarkanman, xuddi birinchi marta kiyayotganday his qilaman va shu sohani tanlaganimdan faxrlanaman, – deydi suhbatimiz so'nggida lavhamiz qahramoni.


Mirzoqul AHADOV,
«Postda» muxbiri.

Buxoro viloyati.

Do'st-u dushmanga muomala qilish tuzuki

Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvat-u ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar.

Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh izlab kelganlarida, ularni o'zinning baxt-u davlatimga sherik bilib, hech qachon mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ulardan ayamadim.



Присяга Родине



«ОПРАВДАЮ ВЫСОКОЕ ДОВЕРИЕ»

Защита Родины – долг каждого гражданина. Принимая Присягу, военнослужащий торжественно клянётся быть храбрым и бдительным воином, верным сыном независимого Узбекистана.



В войсковой части № 7531 Караульных войск МВД Республики Узбекистан состоялась церемония принятия Присяги Родине новобранцами, призванными на военную службу из различных регионов страны.

На мероприятии выступил командующий Караульными войсками МВД полковник Хасан Ботиров, который выразил уверенность в том,

что молодые воины будут преданны Родине, народу и Президенту, с честью выполнять священный долг, свято соблюдать Конституцию и законы Республики Узбекистан.

– Сегодня я принес Присягу Родине, – говорит Каромиддин Йулдошев, призванный из Сурхандарьинской области. – Хочу заверить, что буду служить с честью, добросовестно выполнять свой долг,

оправдаю оказанное высокое доверие.

После завершения церемониала состоялся праздничный концерт с участием артистов ансамбля песни и танца Караульных войск МВД, показательные выступления отрядов молодых воинов.

Абу КЕНЖАЕВ,
фотокорреспондент
«Postda».



Бундан уч йил муқаддам ИИВ Қоровул қўшинларига қарашли Наманган вилоятида жойлашган 7552-ҳарбий қисмда қурилиш-таъмирлаш ишлари олиб борилиб, она Ватанимиз ҳимоячилари учун 200 ўринли ётоқхона, маъмурий бино, тиббиёт пункти, назорат-ўтиш жойи ҳамда замон талабларига жавоб бера оладиган спорт зали, футбол ва волейбол майдончалари фойдаланишга топширилган эди. Албатта, бу каби шарт-шароитлар ҳарбий хизматчиларнинг ўз вазифаларини аъло даражада бажаришларида қўл келади.

Полковник Акбар Очилов командирлик қилаётган мазкур ҳарбий жамоа ИИВ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти 2-Минтақавий ҳудудига қарашли 6-сонли жазони ижро этиш колониясининг ишончли қўриқланишини таъминлаб келмоқда.

– Зиммамиздаги масъулият залворли. Огоҳлик, ҳушёрликни қўлдан бермай келаётган ҳарбий хизматчиларимизнинг эришаётган ютуқлари билан фахрлансак арзийди, – дейди қисм командирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари, подполковник Соғлом Узақов. – Ўтган йили Қоровул қўшинлари алоҳида батальонлари ўртасида ўтказилган «Оммавий спорт ишлари» кўрик-танлови ҳамда «Энг илғор батальон» номинацияси бўйича ҳарбий қисмимиз ғолибликни қўлга киритди. Шунингдек, ўтган ўқув йили якунида ҳарбий қисм энг намунали деб топилди. Ўтказилаётган танловларда нафақат ҳарбий хизматчилар, балки уларнинг оила аъзолари ҳам фаол иштирок этиб келаётир. Жумладан, жорий йилнинг январь ойида ушбу гарнизонда жойлашган ҳарбий қисмлар ҳарбий хизматчиларининг фарзандлари ўртасида бўлиб ўтган «Ёш математик» ва «Инглиз тили билимдони» кўрик-танловида ҳам умумжамоа ҳисобида 1-поғонани забт этдик.

Шу йили январь-февраль ойларида Қоровул қўшинлари миқёсида спортнинг энгил атлетика тури бўйича ташкил этилган мусобақада оддий аскар Жумабой Шарипов узоққа сакраш ва 1 километрга югуриш бўйича ғолибликка эришди. Шунингдек, ҳарбий қисмда мунтазам равишда давра суҳбатлари, маънавий-маърифий учрашувлар, спорт

ЮТУҚЛАР ОМИЛИ БЎЛМОҚДА

мусобақалари ҳам ўтказиб келинади. Ҳар ҳафтанинг пайшанба куни жиноятчиликка қарши курашиш, жума кунлари эса маънавият мавзуларида тадбирлар ташкил этилмоқда. Ҳарбий қисмнинг 2 мингдан ортиқ китоб фондига эга бўлган кутубхонаси Ватанимиз ҳимоячиларининг билим салоҳиятини оширишга хизмат қилмоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ҳарбий хизматчиларга етарли даражада шарт-шароитлар яратиш, уларни ижтимоий жиҳатдан муҳофаза қилишга алоҳида аҳамият қаратилмоқда. Масалан, қисм командири томонидан ҳарбий хизматчиларнинг яшаш шароитлари атрофлича ўрганилиб, аниқланган муаммоларни бартараф этиш чоралари кўриб борилмоқда. Биргина, ўтган йилнинг ўзида 26 нафар ҳарбий хизматчининг намунали уй-жой билан таъминлангани ҳам фикримиз тасдиғидир.

– Ҳарбийларга кўрсатилаётган эътибор ва ғамхўрликдан биз жуда мамнунмиз, – дейди кичик сержант Руслан Аббосовнинг турмуш ўртоғи Нилуфар Маллаева. – Яқинда оиламиз билан биргаликда, барча шароитлари муҳайё қилинган янги уйга кўчиб ўтдик.

Шундай қилиб, она юртимизни кўз қорачигидек асраб келаётган ҳарбийларга кўрсатилаётган бундай эътибор ва рағбат уларнинг кучига куч, ғайратига ғайрат қўшиб, ютуқлар омили бўлмоқда.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
«Postda» мухбири.

Наманган вилояти.



To'maris izdoshlari

ISHONCHI – MAQSADLARIGA QANOT

Sabrina IIV Akademiyasi-ning «Tergov faoliyati» yo'nalishida tahsil oladi. U nihoyatda o'ziga talabchan, ko'ngliga biror maqsad tugdimi, albatta, amalga oshirmaguncha tinchilmaydi. Ayniqsa, uning sportga mehri, ishtiyoqi bo'lakcha. Buni payqagan otasi Salohiddin aka yetti yoshligidayoq uni Jizzax shahridagi sport majmuasiga olib borgan.

Gimnastika mashg'ulotlariga qatnay boshlagan Sabrina tirishqoqligi va chaqqonligi tufayli murabbiyidan saboqlarini tezda o'zlashtirib, turli sport musobaqalarida faxrli o'rinlarni egallagan. Ammo bu bilan qoniqmay, ketma-ket karate, yengil atletika, voleybol, basketbol, gandbol, tennis, qo'l jangi sport turlari bilan ham shug'ullanadi. 9-sinfda o'qiyotgan paytidayoq u qator sport turlari bo'yicha yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga ulgurandi.

– Ota-onamga sport majmuasida qilichbozlik yo'nalishi ochilganini, mashg'ulotlarga bormoqchi ekanligimni aytganimda, ular boshida bunga qarshi chiqishdi, – deydi qahramonimiz. – Buning o'ziga yarasha sabablari bor edi. Birinchisi, o'sha kezlarda qator sport turlari bo'yicha shahar, viloyat, respublika hamda xalqaro sport musobaqalarida g'olib bo'lgandim. Yana hammasini yangitdan boshlab, qaytadan shunday darajaga chiqishim mavhum bo'lsa, ikkinchi sabab, bunday murakkab sport turi bilan shug'ullanishim ularda xavotir uyg'otgandi. Ammo fikrim qat'iyiligini ko'rib, rozi bo'lishdi. Ota-onamni bu qarori uchun afsuslantirmaslikka va'da berib, qilichbozlikka qatnay boshladim. Mashg'ulotlarni puxta o'zlashtirishga astoydil harakat qildim. Kuniga mashg'ulot



ikki soat davom etsa, men ikki baravar ko'proq shug'ullandim. Chunki so'zimning ustidan chiqishim kerak edi-da. Tinimsiz mashg'ulotlar natijasini berdi, qisqa vaqt ichida shahar, viloyat, respublika chempionatlarida qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdim. Bu orada maktabni bitirib, IIV Jizzax akademik litseyi o'quvchilari safiga qo'shildim. Litseyda o'qish bilan birga, qilichbozlik bilan ham muntazam shug'ullandim. Yana yangi qiziqishlarim izidan o'q otishning vintovka turiga, rus tili va ingliz tilidan qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnadim.

Qahramonimiz yangilik qilishga, bir joyda to'xtab qolmaslikka harakat

qiladi. Har bir daqiqaning samarali o'tishini istaydi. Hayotda vaqtni mana shunday qadrlagan insonlar murodiga bekamu ko'st yetadi. U hozirda IIV Akademiyasining mohir sportchi kursantlaridan. Qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari ham shunga yarasha, qilichbozlik bo'yicha besh karra O'zbekiston chempioni, qator turnirlar sovrindori.

– Mendan doim qilichbozlik sport turini nima sababdan tanlaganimni so'rashadi, – deydi qahramonimiz. – To'g'ri, bir qarashda qilichbozlik boshqa sport turlariga qaraganda xavfli bo'lib ko'rinishi mumkin. Biroq sportchi jangda imkoniyatlari va kuchini to'g'ri taqsimlab, ruhiy barqarorlik bilan raqibining har bir zarbasini his etib, jang qilsa, hammasi yaxshi bo'ladi. Kelajakda o'z oldimga qo'ygan maqsadlarim ko'p. Xususan, ta'lim olayotgan yo'nalishimda yetuk mutaxassis bo'lib, yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlashdek muhim ishga o'z hissamni qo'shmoqchiman. Sportda ham yuqori natijalarni qo'lga kiritib, ustoz-murabbiylarim, ota-onam ishonchini oqlashim shart.

Sabrina Shakirova hali yo'l boshida. U bugun erishgan yutuqlari bilan to'xtamoqchi emas, balki shijoatga to'la qalbi bilan bundan-da katta marralarni ko'zlamda. Tilagimiz bitta: uning yuragidagi kuchli ishonch ertangi maqsadlariga qanot bo'lsin.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
«Postda» muxbiri.

Ogriqli mavzu

ЎСМИР НЕГА ПИЧОҚ ОЛИБ ЮРИБДИ?

Ёшлар тарбияси кечиктириб бўлмайдиган вазифа. Айниқса, шиддат билан ривожланиб бораётган ахборот асрида келажагимиз ворисларини турли иллатлар таъсиридан асраш, жиноят кўчасига кириб қолишининг олдини олиш катталарнинг энг муҳим вазифасига айланиши лозим.

Аmmo беш қўл баробар бўлмаганидек, барча ота-она ҳам ўз боласининг тарбиясига етарлича эътибор қаратмаяпти. Натижада ёшлар ўртасида ўзаро муштумзўрлик, совуқ қурола қўтариб юриш, бир-бирига тан жароҳати етказиш каби салбий ҳолатлар тез-тез қайд этилмоқда. Бу борадаги вазият Қўқон шаҳрида бошқа ҳудудларга қараганда бирмунча оғир эканлиги аччиқ ҳақиқатдир.

Яқинда ички ишлар органлари ходимлари томонидан ўтказилган тезкор профилактик тадбир давомида Қўқон шаҳридаги 14-умумтаълим мактабининг 6-синфида ўқийдиган ўқувчининг сумкасида қўлбола бита борлиги маълум бўлди. 27-умумтаълим мактабида ўтказилган «Давомат» ва «Тиг» тадбири жараёнида эса 8-синф ўқувчисининг ёнида ўткир тигли пичоқ борлиги аниқланди. 21-мактабнинг 10-синф ўқувчиси бел қисмига ўткир тигли пичоқни яшириб юрганида ички ишлар органлари ходимлари томонидан аниқланди.

Шаҳарнинг Тошҳовуз қўчасида бир гуруҳ вояга етмаганлар тўпланиб, ўзаро жанжаллашаётгани ҳақида хабар олган ички ишлар органлари ходимлари воқеа жойига зудлик билан етиб бориб, низоли ҳолатни бартараф этишди ва содир этили-

ши мумкин бўлган жиноятнинг олди олинди. Жанжаллашаётган ўсмирларнинг ёни холислар иштирокида кўздан кечирилганида, 1-сонли касб-хунар мактаби ҳамда 16-умумтаълим мактабида ўқийдиган икки нафар ўқувчида ўткир тигли пичоқ борлиги аниқланди.

Юқоридаги ҳолатлар юзасидан вояга етмаганларнинг ота-оналарига нисбатан фарзандига таълим ва тарбия бериш борасидаги мажбуриятларини бажармаганлиги учун Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 47-моддасига асосан чора кўрилди.

– Ёшларнинг пичоқ ва тигли буюмлар олиб юриши энг оғриқли масала, – дейди Қўқон шаҳар ИИБ ХПБ вояга етмаганлар ва ёшлар билан ишлаш гуруҳи катта инспектори, майор Дилшоджон Эргашов. – Жорий йилнинг ўтган даврида шаҳар ҳудудида жойлашган барча таълим муассасалари, маҳалла фуқаролар йиғинларида ана шундай салбий ҳолатларнинг барвақт олдини олиш мақсадида 359 марта учрашув ва йиғилишлар ўтказдик. Ўқитувчи ва мураббийлар билан бирга 589 нафар жиноят содир этишга мойиллиги бор вояга

етмаганларнинг яшаш хонадонига бориб, «хонадонбай» ўрганишлар олиб борилди. Шаҳардаги мавжуд 39 та умумтаълим мактабларида хавфсизликни таъминлаш мақсадида тезкор чақирув тугмалари ўрнатилиб, Миллий гвардия кўриқлаш бўлими билан интеграция қилинди. 12 та мактабда шартнома асосида соқчилик хизмати ташкил этилди.

Афсуски, ички ишлар органлари ва бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан ҳам-

корликдаги профилактик тадбирлар мунтазам олиб борилишига қарамай, ҳудудда ёшлар томонидан бир-бирига совуқ қурол ёрдамида тан жароҳати етказиш билан боғлиқ жиноятлар салмоғи камаймаяпти.

Ўсмирлар томонидан содир этилган бу турдаги жиноятлар шаҳар фаоллари иштирокида муҳокама қилиниб, ёшларнинг тигли қурол олиб юришига сабаб бўлаётган асосий омиллар чуқур таҳлил қилинмоқда. Таҳлилларга кўра, айрим ёшлар оиладаги тарбиянинг етарли эмаслиги, ота-онаси ва яқинлари томонидан назорат қилинмаслиги, маҳалла фаоллари ва жамоатчиликнинг эътиборсизлиги натижасида пичоқ ва бошқа совуқ қурола қўтариб юришни одат қилишмоқда.

Хўш, шундай тинч ва осуда даврда, ёшлар таълим-тарбиясига катта эътибор берилаётган, илм ва хунар эгаллаш учун кўп имконият ва шароитлар яратиб берилаётган замонда ўсмирлар нима учун пичоқ қўтариб юришмоқда? Бунга қандай зарурат бор?

Ёшлар ўртасидаги бундай салбий ҳолатларнинг барвақт олдини олишга қаратилган профилактик чора-тадбирларни янада кучайтириш ва таъсирчанлигини ошириш керак. Хусусан, кўпни кўрган, ҳаёт тажрибасига эга нуронийлар иштирокида таълим муассасаларида, маҳалларда ҳуқуқий тарғибот тадбирларини мунтазам ташкил этиб, ёшлар онгига қадриятларимизни чуқурроқ сингдириш, жиноят ва ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил ёшлар, масъулиятсиз ота-оналар билан манзилли иш олиб бориш, «мактаб – маҳалла – оила» ҳамкорлик механизмини тизимли йўлга қўйиш зарурлиги ҳозирги куннинг долзарб вазифаси бўлиб қолаверади.

Абдусит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.

Фарғона вилояти.

«ЗЕЛЕНАЯ» ЭНЕРГЕТИКА: ДОСТУПНО И НЕОБХОДИМО

Динамичный экономический рост напрямую связан с увеличением спроса на энергию, необходимую для функционирования как промышленного сектора, так и сектора услуг. К сожалению, ее производство традиционными методами приводит к серьезному загрязнению окружающей среды в виде выброса в атмосферу огромного количества парниковых газов. Разрушительные последствия этого явления мы уже давно наблюдаем в виде ухудшения качества воздуха и глобального потепления, влияющего, например, на увеличение частоты наводнений и ураганов, таяние ледяного покрова на полюсах или гибель различных видов растений и животных.

Человечество, уже столкнувшееся с энергетическим кризисом, старается найти новые, экологически чистые и восполняемые источники энергии, более выгодные по простоте и дешевизне получения, транспортировке. Эти нетрадиционные способы получения, передачи и использования энергии получили известность как альтернативная, «зеленая» энергетика.

В течение многих лет правительства целого ряда стран, международные организации уделяют особое внимание продвижению и использованию возобновляемых источников энергии в промышленности.

Термин «зеленая» энергетика относится к энергии, полученной из возобновляемых источников. Популярность этого термина, связанного с развитием экологических трендов в промышленности, сделала аббревиатуру «ВИЭ» (возобновляемые источники энергии) одним из ключевых лозунгов в стратегиях компаний, преследующих цели устойчивого производства и потребления, идентичных «Европейской таксономии» или мировой «Повестке дня на период до 2030 года».

Альтернативная энергетика поможет решить такие проблемы, как необратимая трата полезных ископаемых и выделение в атмосферу углекислого газа. Ее использование снизит уровень глобального потепления, парникового эффекта, загрязнения и изменения экологии.

Возобновляемые источники энергии – это совокупность природных ресурсов, из которых производится электро- и тепловая энергия. Длительная эксплуатация не оказывает существенного влияния на дефицит этих ресурсов, их возобновление происходит в короткие сроки. К возобновляемым источникам, из которых производится «зеленая» энергия, относятся: ветер, солнечный свет, вода, геотермальные источники, морские волны, морские течения и приливы, биомасса, биогаз.

Наиболее популярными источниками возобновляемой энергии являются: ветер, солнце и вода.

Солнечная энергия

В настоящее время это самый популярный вид возобновляемой энергии. Солнечная энергия производится благодаря фотоэлектри-

ческим установкам и солнечным коллекторам.

Энергия ветра

Одним из столпов экологической энергетики являются ветряные электростанции, состоящие из эффективных турбин и устройств, вырабатывающих электроэнергию.

Энергия воды

Энергия вырабатывается с использованием естественных внутренних водотоков. Гидроэнергетика привязана, в основном, к рекам с достаточно сильным течением или большим спадом.

Геотермальная энергия

Источник энергии – геотермальное тепло, которое аккумулируется

в Узбекистане в последние годы на системной основе ведется работа по развитию «зеленой» энергетики. Так, 4 октября 2019 года утверждена Стратегия по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019–2030 годов. Осуществляются меры по повышению показателя энергоэффективности, развитию ВИЭ, обеспечению доступа к современному, недорогому и надежному энергоснабжению.

В Концепции обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020–2030 годы четко обозначены цели и задачи в рассматриваемом направлении,

К 2026 году общая мощность солнечных фотоэлектрических электростанций в Узбекистане достигнет 4 000 МВт, мощность ветряных электростанций – также 4 000 МВт. До 25% вырабатываемой в стране электроэнергии будет поступать из возобновляемых источников энергии.

До 2026 года в Самаркандской, Сурхандарьинской, Ташкентской, Кашкадарьинской, Наманганской и Андижанской областях будет построено 15 новых гидроэлектростанций (ГЭС), модернизированы 5 действующих ГЭС.

Создание эффективной нефтегазовой отрасли является неотъемлемой частью «зеленой» энергетики. Узбекистан модернизировал газотранспортную систему, усовершенствовал учет и контроль газопотребления. Все это сделано для того, чтобы снизить выбросы, минимизировать потери при транспортировке газа.

«Зеленая» энергетика и реформы в нефтегазовой сфере неразрывно связаны друг с другом. В свою очередь, проекты ВИЭ дают возможность не только следовать актуальной во всем мире повестке, но и высвобождают значительную часть такого важного природного ресурса, как газ.

В Узбекистане запущена промышленная солнечная фотоэлектрическая станция мощностью 100 МВт. Сейчас на стадии реализации находятся десятки крупных инвестиционных проектов в области использования ВИЭ. Меняется структура потребности в энергетических ресурсах, в частности, при переходе от углеводородных ресурсов к возобновляемым источникам энергии актуальным становится вопрос развития водородной энергетики.

Альтернативные источники энергии оказывают положительное влияние на экологию. Чтобы заинтересовать людей в активном их использовании, государство предоставляет ряд налоговых льгот и преференций. В целях развития «зеленой» экономики страны Узбекистан стремится к увеличению объема «зеленой» энергетики. Ведь за ней – будущее.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



в грунтовых водах и глубоких горных породах. Называемая «энергией недр Земли», она используется в основном как источник тепла.

Энергия из биомассы

Возобновляемым источником энергии является биомасса, состоящая из веществ растительного или животного происхождения. Отходы и остатки от животноводческих, сельскохозяйственных или домашних хозяйств могут подвергаться процессам выделения газов или этерификации.

Вышеперечисленные источники производства «зеленой» энергии, конечно же, требуют инвестиций, наличия надлежащим образом спроектированных систем и промышленных установок. Обеспечение технических условий – ключевая задача с точки зрения эффективной подготовки, переработки и использования возобновляемых источников энергии.

механизм их реализации. Данный стратегический документ содержит ответ на главный вопрос – как ликвидировать энергодефицит. Концепция предусматривает увеличение к 2030 году доли возобновляемых источников энергии в общем энергобалансе страны до 11%. Из них 5% будет составлять солнечная, 3,8% – гидроэнергетика, 3% – вырабатываться с использованием ветра. Эта задача уже реализуется, принимаются активные меры по реализации крупных проектов в сфере ВИЭ.

В 2023 году запланирован ввод 4 солнечных фотоэлектрических электростанций общей мощностью 1 097 МВт в Самаркандской, Джизакской, Навоийской и Сурхандарьинской областях, 4 ветряных электростанций общей мощностью 1 600 МВт в Республике Каракалпакстан, Бухарской и Навоийской областях.





Kitobxon xodim

YOSHLIKNING ENG YAXSHI RAHBARI

Sevib o'qiladigan badiiy asar insonning qalbini poklaydi. Chunki unda qanday voqealar aks etmasin, tag zamirida ezgulikka, insonni sevishga undash maqsadi yotadi. Inson va uning kechmishlari haqida so'zlovchi romanlar, hikoyalar va qissalarni sevib mutolaa qiladigan kishidan hech qachon yomonlik chiqmaydi.



Qahramonimiz, Qiziriq tumani IIB HPB voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, leytenant Mansur Dursoxatov ana shunday asarlar ixlosmandi. Esini tanibdiki, kitob mutolaa-siga mukkasidan ketgan Mansur bugun ham sevimli mashg'ulotini tark etmagan. Ammo o'qish bilan uqishning farqi bo'lgani kabi, u asarlarni shunchaki o'qimaydi, undagi qahramonlarning kechinma-

lari bilan birga yashaydi. Voqealar rivojini, qahramonlarning xarakterini falsafiy tahlil qilishga, o'zicha ulardan xulosalar olishga urinadi.
– Kitob eng yaqin maslahatgo'yim, hayot yo'limdagi yo'lchirog'imdir, – deydi leytenant Mansur Dursoxatov. – Chunki hayotda kishi turfa vaziyatlarga tushadi, turli xarakterdagi insonlar bilan to'qnash keladi. Tabiiyki, bu jarayonda muomala-munosabatga kirisharkan, muammolar bilan ham yuzlashadi. Shunday

vaqtlarda o'qigan kitoblardan olgan saboqlarim yordamga keladi. Ular menga to'g'ri tanlov qilishimga, sodir bo'layotgan hodisalardan nimalarnidir anglashimga yordam beradi.
I.Turgenevning «Otlar va bolalar» asari Mansurning sevib o'qiydigan kitoblaridan biri. Chunki bu asar kishini o'z ustida ishlashga, atrofdagilarga ko'proq yaxshilik qilish, mehr ko'rsatishga turki beradi, deb hisoblaydi. Said Ahmadning «Ufq»

trilogiyasi esa inson boshiga tushadigan kulfatlar va musibatlarini matonat bilan yengishga o'rgatadi, deya ta'kidlaydi.
Darvoqe, tuman IIBda kitobxonlar jamoasi tashkil etilgan. Mansur ularning sardori. Quvonarlisi, ushbu jamoa Buxoro, Andijon va Toshkent shahrida o'tkazilgan «Zukko kitobxon» tadbirlarida faol ishtirok etib, tanlovning respublika bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritgan.
Qahramonimiz hozirda «Eng yaxshi kitobxon»

tanlovida ishtirok etish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'ryapti.
«Kitob keksalikning eng yaxshi do'sti, yoshlikning eng yaxshi rahbari» degan naql bor. Darhaqiqat, Mansur singari kitobni do'st deb bilgan, teran fikrli avlod ko'proq yetishib chiqsa, sohada fidoyilar ko'payadi. Bu, o'z o'rnida, tizim faoliyatini yaxshiroq tashkil etishga, pirovardida, uning rivojiga xizmat qiladi.
Feruza RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.
Surxondaryo viloyati.



2023-yil – Insonga e'tibor va sifalli ta'lim yili

QOSIMOV DAN YAXSHI TASHABBUS

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Hozirda haftaning har seshanba va payshanba kunlari tuman ichki ishlar bo'limining tajribali xodimlari bolalarga saboq berishyapti. Bu jarayonda o'quvchilarga yurtimiz ozodligi uchun kurashgan ulug' ajdodlarimiz haqida ma'lumotlar beriladi, ichki ishlar organlari faoliyatiga doir huquqiy hujjatlar mohiyati yetkaziladi. Shuningdek, mashg'ulotlar davomida soha xodimlarining xizmat faoliyati, ish uslublari, ular foydalanuvdagi texnika, aslaha va vositalar xususida ham so'z yuritiladi. Qolaversa, o'quvchilar tuman IIB binosida tez-tez bo'lib turishadi. Bu jihat yoshlarga xodimlar faoliyati bilan yaqindan tanishish imkonini bermoqda.

– Men kelajakda ichki ishlar organi xodimi bo'lmoqchiman, – deydi to'garak a'zosi Kamo-

liddin Tursunov. – Shu bois bu yil IIV Jizzax akademik litseyiga hujjat topshirdim. To'garakda egallagan bilimlarim qo'l kelib, sinovlarning ikkita bosqichidan muvaffaqiyatli o'tdim. Ayni paytda bir qator fanlardan bilimlarimni hamda jismoniy tayyorgarligimni kuchaytirayman.

Bu hammasi emas, maktabda tuman IIB tomonidan yo'l harakati xavfsizligi sinfi hamda maydonchasi yuzaga keltirilib, talab darajasida jihazlandi.

Qisqasi, Do'stlik tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 3-sektor ishchi guruhi tomonidan ko'p va xo'p tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida, soha vakillarining 2022-yildagi faoliyati respublika sektorlari orasida eng namunali, deb topildi.

Alijon ABDUSATTOROV,
«Postda» muxbiri.
Jizzax viloyati.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksidan:

Xodimlar kasbiy madaniyat qoidalarining quyidagi asosiy talablariga amal qilishga majburdir:

o'z xizmat vazifalarini vijdonan, halol va yuksak professional darajada bajarish, rasmiyatchilik, soxtakorlik va suiiste'molchilikka yo'l qo'yimaslik;

ichki tartib qoidalarga, shuningdek, telefonda so'zlashish va kiyinish madaniyatiga qat'iy rioya etish.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

YASHIL ENERGETIKA – BEMINNAT VA ARZON

Shiddat bilan rivojlana-yotgan yuksak texnologiyalar asrida inson farovonligi uchun xizmat qiladigan innovatsiyalar kun sayin taraqqiy etmoqda. Yashil energetika manbalarini ham shular jumlasiga kiritish mumkin.

Ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki quyosh batareyalari fransuz fizigi Aleksandr Edmond Bekereel tomonidan 1842-yilda ixtiro qilingan bo'lib, 1948-yilda Amerikaning «Bell» kompaniyasining ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanuvchi «Bell Laboratories» firmasi birinchi quyosh batareyalarini ishlab chiqaradi. Oradan 10-yil o'tib esa, AQSHda quyosh panellaridan foydalanuvchi sun'iy yo'ldosh – «Vanguard I» fazoga ko'tariladi. 1958-yilning 15-may kuni sobiq ittifoq ham ana shunday qurilmalarni kosmosga uchiradi. 1963-yilda Yaponiyaning «Sharp» kompaniyasi sanoat asosidagi quyosh batareyalarini ishlab chiqarishga o'tishi bilan undan nafaqat fazoda, balki oddiy iste'molchilarning foydalanishlari uchun ham yo'l ochiladi. Oradan yigirma yil o'tib, AQSHning «Pacific Gas & Electric» konserni markazlashgan tarmoq orqali 500 kVt yetkazib beradigan ilk elektr stansiyasini ishga tushiradi.

Shuningdek, 1883-yilda amerikalik ixtirochi Charlz Fritts oftob nurini elektrga aylantirish uchun kimyoviy unsur bo'lmish selenidan foydalanishni ilgari surgan. Undan ishlangan qurilmaning usti o'ta yupqa oltin bilan qoplandi. Shunday qilib, 1984-yilda dunyoda dastlabki quyosh batareyasi Nyu-Yorkdagi binolardan birining tomiga o'rnatiladi. 2010-yilda dunyo bo'yicha muqobil energiya ishlab chiqarish 10 ming MVtni tashkil etib, 1984-yildagi 1 MVtga nisbatan o'n ming baravar ortgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu miqdor 206 ming MVtga yetdi. Ayni paytda quyosh nuri energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi qurilmalar yildan-yilga takomillashib borayotir.

Prezidentimizning 2019-yil 22-avgustdagi qaroriga ko'ra, yurtimizda 2030-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr

energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi 25 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan edi. Hozirda bu ko'rsatkich 10–12 foizni tashkil etmoqda. Belgilangan muddatda mazkur natijaga erishish uchun Energetika vazirligi qayta tiklanadigan energiya manbalariga bog'liq yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish choralari ko'rmoqda. Unga muvofiq, o'n yil ichida umumiy quvvati 5 ming MVt bo'lgan quyosh elektr stansiyalari hamda 3 ming MVtga teng shamol elektr stansiyalarini qurish rejalashtirilgan.

Shamol elektr stansiyalari o'tmishiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, unga birinchi bo'lib, 1887-yili Shotlandiyada Jeyms Blit tomonidan asos solinadi. Ammo zamonaviy shamol energetikasi vatani – AQSHning Kaliforniya shtati hisoblanadi. U yerda 1980-yillarda boshlangan keng ko'lamli sa'y-harakatlar natijasida 2020-yilga kelib muqobil energiya ishlab chiqarish 100 GVtga yetadi. Ayni vaqtda, yer yuzidagi barcha shamol qurilmalarining yillik quvvati 651 GVtdan oshadi. Endilikda bu raqamlar yiliga 10–15 foizdan oshib borishi taxmin qilinmoqda.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasini rivojlantirish uch yillik tarixga ega bo'lsa-da, qisqa davr ichida ko'plab ishlar amalga oshirildi, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki 2019–2022-yillar oralig'ida issiqlik, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha xorijiy investorlar bilan jami 6 milliard 919 million AQSH dollariga teng 19 ta bitim imzolashiga erishildi. Ayniqsa, 2019-yili qabul qilingan «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi qonun mazkur sohani rivojlantirish yo'lidagi muhim poydevor bo'ldi. Boisi, ushbu hujjatda yashil energetika tizimini yuksaltirish bo'yicha barcha tashkiliy va huquqiy masalalar joy olgan edi. Unga ko'ra, yashil energetika qu-

rilmalari va ulardan energiya ishlab chiqaruvchilarga bir qator imtiyozlar berilishi ko'zda tutilgandi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan sohaga oid qarorlar samarasi o'laroq, yurtimizda yashil energetika tizimiga mustahkam asos solindi. Natijada mamlakatimiz hududida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilib, bugungi kunda ular o'zining ijobiy samarasini berayotir.

Masalan, Samarqand va Navoiy viloyatlarida qurilgan ikkita yirik quyosh stansiyalari Vatanimizda yashil energiya davrini yangi pog'onaga olib chiqdi. Jumladan, 2021-yilning avgustida Birlashgan Arab Amirliklarining «Masdar» kompaniyasi tomonidan Karmana tumanida qurilgan 100 MVt quvvatli respublikamizda birinchi quyosh fotoelektr stansiyasi foydalanishga topshirildi. 110 million dollar investitsiya o'zlashtirilib, 300 mingta quyosh panellari o'rnatilgan bu inshoot yiliga 252 million KVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqarib, 80 million kub metr tabiiy gazni tejaydi. Natijada 160 ming tonna bug'lanuvchi gazlar atmosferaga chiqishining oldi olinadi. Bu esa tom ma'noda O'zbekistonning «yashil iqtisodiyot»ga o'tishidagi birinchi qadam bo'ldi.

O'tgan yilning may oyida Nurobod tumanida quvvati 100 MVtga teng bo'lgan yana bir yirik quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. U yiliga 260 million kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarib, 80 mingdan ortiq xonadonni yoritish imkoniga ega hisoblanadi. Ushbu stansiya ishga tushirilishi bilan yiliga 78 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinish, atmosferaga 100 ming tonna zararli chiqindilar chiqishiga barham berildi.

Yashil energetikani taraqqiy ettirish aholini nafaqat energiya bilan ta'minlashda, balki atrof-muhitni himoya qilishda ham asosiy vosita sanaladi. Shu sababli, ona Vatani-

mizda ham mazkur sohani rivojlantirish har doimgidan-da muhim. Chunki 2026-yilga borib, mamlakatimizda quyosh va shamol elektr stansiyalari quvvati 8 ming MVtga yetkazilishi va buning oqibatida yiliga qariyb, 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash nazarda tutilgan. Eng quvonarlisi, joriy yilda Jizzax, Samarqand, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida jami quvvati 1 ming 100 MVt bo'lgan 4 ta, 2023–2024-yillarda esa Buxoro va Navoiy viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy quvvati 1 ming 600 MVt bo'lgan yana shuncha quyosh va shamol elektr stansiyalari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Haqiqatan ham, yurtimizda energetika sohasini tubdan isloh qilish masalalarida butkul yangi tizim tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Jumladan, «2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavochi texnologiyalarni joriy etishni jadallatirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qaroriga muvofiq joriy yilning 1-apreldan boshlab, umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran, 3 yil muddatga, o'rnatilayotgan quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o'rnatilgan bo'lsa, 10 yil muddatga bir qator soliq va majburiyatlardan ozod etildi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash va aholining energiya manbalariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida davlatimiz va hukumatimiz tomonidan barcha ishlar amalga oshirilyapti.

Mixli SAFAROV,
«Postda» muxbiri.

1984-yilda dunyoda dastlabki quyosh batareyasi Nyu-Yorkdagi binolardan birining tomiga o'rnatiladi.

Yashil energetikani taraqqiy ettirish aholini nafaqat energiya bilan ta'minlashda, balki atrof-muhitni himoya qilishda ham asosiy vosita sanaladi.



Жизнь и судьба

СДЕЛАТЬ МИР ЯРЧЕ И ДОБРЕЕ

Как замечательно, что среди нас есть такие люди, которые теплотой своей души делают окружающий мир лучше, будто добавляют ярких красок в серые будни. И тогда от их улыбки, доброго слова все печали и горести уносятся прочь, и из-за туч выглядывает веселое и ласковое солнце...

Именно к таким замечательным людям относится Гульнур Зинуровна Мулюкова, которая на протяжении 40 лет плодотворно работала в системе МВД Узбекистана. Чуткая, внимательная, ответственная женщина с прекрасным и звучным именем добрым словом, душевным отношением дарила всем нам хорошее настроение, позитивный настрой. И годы ее совсем не изменили – она такая же жизнерадостная, как и прежде.

Гульнур Зинуровну знают многие, кто в прошлые времена работал в Центральном аппарате МВД Узбекистана. Она занимала различные должности в штабе министерства, а после того как вышла на заслуженный отдых, продолжила работу в качестве заведующей ведомственной библиотекой. Являясь поклонником различных литературных жанров, особенно фантастики и приключений, я сам неоднократно посещал библиотеку, в которой было собрано огромное множество произведений зарубежных и отечественных авторов. В поисках нужной книги необходимо было

обходить и осматривать стеллажи, где как бесценные драгоценности хранились знания. Г. Мулюкова, словно добрая фея из увлекательного мира литературы, помогала разобраться во всем этом многообразии, выбрать что-то по душе.

– Чтение книг несет в себе огромный смысл, – говорит Гульнур Мулюкова. – Литература обогащает нас духовно и нравственно, заставляет задуматься о смысле жизни, увлекает в мир ярких событий. Каждый, кто отдает должное литературе, расширяет кругозор, получает необходимые знания, может поддержать любую беседу. Особенно это необходимо знать представителям молодого поколения, юношам и девушкам, которым предстоит строить светлое будущее страны.

Все, кто в разные годы работал с Гульнур Зинуровной, хорошо знал ее, часто общался, отзываются о ней тепло, отмечают отзывчивость, тактичность, искреннее желание помочь.

Ныне Г. Мулюкова, как говорится, «отошла от дел», целиком и пол-



ностью посвятив себя семье. На протяжении ряда лет Гульнур Зинуровна заботится о престарелой тете Язилле, которая нуждается в постоянном лечении, уходе и внимании. В г. Самаре Российской Федерации проживает ее дочь Айгуль. Вместе с мужем, Русланом, воспитывает двух чудесных дочек – Сабину, которой пять с половиной лет, и Камиллу – в декабре прошлого года ей исполнилось три года. Конечно, героиня нашего очерка очень скучает по родным и близким, с нетерпением ждет с ними встречи. Помимо личных качеств, Гульнур Зинуровна любит хлопотать по дому, готовит различные татарские блюда, особенно ей удается выпечка.

– Различные сладости, чак-чак, беляши, пироги с мясной и овощной начинкой, суп-лапша – токмач часто присутствуют на нашем столе, – улыбается Г. Мулюкова. – А как без этого? Традиционная кухня – это культура и обычаи каждого народа, населяющего благодатную узбекскую землю, забывать свои исторические корни и истоки нельзя.

Вот так и живет уважаемая Гульнур Зинуровна – каждый день приносит что-то новое. Пусть судьба продлит ее годы, а в доме царят благоденствие и процветание!

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».



Аспект профилактики

НЕ ПРОЯВЛЯТЬ БЕСПЕЧНОСТЬ!

Сотрудники подразделений Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона во взаимодействии с представителями АО «Ўзбекистон темир йўллари» осуществляют среди населения профилактическую работу в целях предупреждения несчастных случаев.

Железнодорожные пути – зона повышенной опасности. Об этом шла речь в ходе встречи сотрудников обеспечивающих безопасность на станции «Орзу» с учащимися общеобразовательной школы № 24 Ахангаранского района. Ребятам вновь напомнили о необходимости перехода железнодорожных путей в установленных местах, убедившись в отсутствии движущегося поезда, локомотива, быть предельно внимательными, не пытаться сократить путь, подлезая под вагоны.

Инспекторами профилактики правонарушений, несущими службу на станции

«Узбекистон», проведены аналогичные беседы с учащимися школ № 10, № 57 Янгиюльского района.

– Бывают случаи, когда подростки при отсутствии должного контроля со стороны старших, забираются на крыши вагонов, бродят по путям, катаются на подножках вагонов. Такие «развлечения» могут закончиться весьма печально, – подчеркивает старший инспектор группы профилактики правонарушений отделения обеспечения безопасности на станции «Чирчик» старший лейтенант Жонибек Номзов. – Железная дорога – не место для игр. Эту



мысль в ходе очередной встречи мы довели до сознания мальчишек и девчонок, обучающихся в школах № 6, № 16 Кибрайского района. А для девятиклассников школы № 12 города Чирчика специально организовали экскурсию на станцию «Боз-су». Здесь им рассказали о том, как следует себя вести на платформах станций, отмечена недопустимость взбирания на крыши вагонов стоящих поездов, ибо это чревато поражен-

ем высоковольтным электрическим током.

К сожалению, и среди взрослых встречаются те, кто, к примеру, проявляя безответственность, могут спокойно пересекать пути в неполюженных местах, «забывая», что подают не самый лучший пример, ходить по железнодорожному полотну, не учитывая, что поезда движутся с определенной скоростью, совершить резкое торможение состава практически невозможно.

– В связи с этим ведем работу с жителями махаллей, расположенных близ железнодорожных магистралей, – говорит наш собеседник. – Недавно состоялась профилактическая беседа с жителями махаллей Янги Аргин, Нурафшон Кибрайского района, Галаба города Чирчика. Акцентировано внимание на необходимости соблюдения правил, быть предельно внимательными к детям, не оставлять их без присмотра, не позволять играть близ путей. Кроме того, махаллинцам напомнили: нельзя осуществлять выпас скота в полосе отвода железной дороги. В ходе встреч участникам розданы буклеты, разъясняющие недопустимость игнорирования правил, об ответственности за их нарушение.

Радик ТУМПАРОВ,
корреспондент
«На посту».

Ташкентская область.



MA'RIFAT BO'STONI

AVVAL TINGLASHNI O'RGAN

Bir kuni donishmandning yoniga bir yigit kelib, buyuk mutafakkirdan ilm o'rganishni niyat qilganini aytibdi. Bo'lajak shogird uchrashuv davomida tinimsiz bir narsalarni gapirib berar, xotirlar, chalg'ir va yana so'zlashda davom etardi. Ikki soatlik suhbatdan so'ng yigit donishmanddan so'rabdi:

– Sizda tahsil olish menga qanchaga tushadi?

– Bizning maktabda o'qish niyatigiz bo'lsa, boshqa shogirdlarimdan

olinadigan mablag'ning ikki baravarini to'lashingizga to'g'ri keladi, – javob qilibdi faylasuf.

– Kechirasiz-u, lekin nima uchun? – xitob qilibdi yigit.

– Negaki, sizga to'g'ri so'zlash, suhbatga kirishish, odob-axloq saboqlarini berishdan avval tinglashni o'rgatishim zarur.

BAXT – O'Z OO'LINGDA

Bir kishi umri davomida baxtiyor yashabdi. U hamisha jilmayib turar, hech kim uni g'amgin holda ko'rmagan ekan. Kunlardan birida odamlar undan buning sababini so'rashibdi:

– Nega hech qachon xafa bo'lib, g'amga botmaysiz? Qanday qilib, har doim quvnoq yurishga muvaffaq bo'lasiz? Baxt-saodatigizning siri nimada?

U kishi esa yuzida tabassum bilan javob qaytaribdi:

– Men ham bir vaqtlar hamma kabi siqilib, sal narsaga asabiylashar va kayfiyatsiz yurardim. Lekin vaqti kelib, bir haqiqatni anglab yetdim: hayot bu – mening tanlovim, mening hayotim. Ushbu tanlov imkoniyati faqat menga berilgan va faqat o'zimga bog'liq. O'sha kundan buyon har tong uyqudan ko'zlarimni ochib, o'zimga-o'zim savol beraman: «Xo'sh, bugun nimani tanlayman: qayg'unimi yoki quvonchni? Tabiiyki, har doim quvonchni afzal ko'raman va taqdir yo'lida uchragan har qanday muammo-yu qiyinchiliklarni yaxshilikka deb qabul qilaman. Bor sir shunda, xolos.

BEGONA O'T

Bahorning iliq kunlaridan birida nabira o'z bobosi bilan tomorqadagi begona o'tlarni yulish bilan ovora edi. Ishga qiziqish bilan kirishgan bolakay qariyadan so'radi:

– Bobojon, nega biz ekmagan begona o'tlar gurkirab yaxshi o'sadi-yu, yerga tikkan ekinlarimizga esa e'tibor, parvarish va mehnat kerak?

– Bolajonim, mana, ko'rdingmi, qiziquvchan va kuzatuvchan bo'lganing tufayli o'zing uchun yangilik yaratding: demakki, dunyoda inson uchun zarur,

qadrli va ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar bizdan ko'p kuch, sabr va sa'y-harakat talab qiladi, zararli va keraksiz narsalar esa o'z-o'zidan yuzaga kelib, rivojlanaveradi.

AKNI ONNI QADRLAB YASHA

● Kimdandir siringni saqlashini so'rama, chunki buni o'zing uddalay olmaganсан.

● Hayoting shirin bo'lmasa, boshqalarnikiga ham tuz sepma.

● Aksariyat odamlar shunchaki so'zdan ish-harakatga o'tish jarayonida bedarak g'oyib bo'lishadi.

● Agar rejang bir yilga mo'ljallangan bo'lsa – guruch ek, agar 10 yil uchun bo'lsa – daraxt ko'chati o'tqa z, 100 yillik reja ro'yobi uchun esa – avlodlaringni o'qit.

● Daqiqalar o'tgan sayin o'tmishimiz ortib kelajagimiz ozayib boradi. Shunday ekan, ayni onni qadrlab yasha.

● Agar urinib ko'rsang ikki xil natija bo'ladi: bu ish o'ngidan keladi yoki kelmaydi. Lekin agar umuman urinmasang, natija faqat bitta bo'ladi.

● Bizni ko'proq temir asablar emas, rezinali sabr qutqaradi.

● Insonning xatti-harakatlari uning xayolidagi o'y-fikrlarning eng mohir tarjimonidir.

ISTAK

Uch aka-uka safar chog'ida notekis va egri-bugri yo'lga duch kelishdi. Ular navbatdagi burilishdan o'tayotganda, bir chuqurni ko'rib qolishdi. Bu o'raga Baxt tushib ketgan bo'lib, o'zi mustaqil ravishda tepaga chiqishni uddalay olmasdi. Shunda inilardan to'ng'ichi chuqurga yaqinlashibdi. Baxt undan:

– Sen nimani istaysan? – deb so'rabdi.

– Badavlat bo'lishni xohlayman, – deya javob beribdi yigit.

Baxt uning qarshisida ko'p pul va zeb-u ziynatlar paydo qilibdi. Katta o'g'il ularni olib, yo'lida davom etibdi.

Baxt o'raga yaqinlashgan o'rtancha o'g'ilga ham xuddi shu savolni beribdi. U esa biroq o'ylanib:

– Dunyodagi eng go'zal ayolga uylanishni istayman, – debdi.

Baxt uning xohishini ham muhayyo qilibdi. Axiyri chuqurga yaqinlashgan kichik o'g'il Baxtning «Qanday istaging bor?» degan savoliga javob berish o'rniga, «O'zing nimani istaysan?» deb so'rabdi.

– Chuqurdan chiqib olishimga yordam ber.

Kenja o'g'il Baxtni o'radan tortib olib, uni qutqaribdi. Baxt esa uning ortidan ergashibdi.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.





Хизматларда

САРҲАДЛАРИМИЗ ДАХЛСИЗЛИГИ

Тошкент вилояти ИИББ Тезкор-қидирув хизмати Терроризмга қарши курашиш бошқармаси Тоғли ва чегарадош ҳудудлар фаолиятини мувофиқлаштириш бўлими ходимлари хизмат вазифаларини бекам-кўст адо этиб келишмоқда. Асосий фаолияти тоғли ҳудудларда хавфсизликни таъминлаш, жиноятчиликнинг олдини олиш, экстремистик ва террористик гуруҳлар, шунингдек, ўқотар қурооллар, портловчи, гиёҳвандлик ва психотроп моддалари, тақиқланган адабиётларнинг юртимиз ҳудудига кириб келишининг олдини олишга қаратилган соҳа ходимлари бошқа хизматлар билан ҳамкорликда тегишли тезкор-профилактик тадбирларни олиб боришмоқда.

Соҳавий хизмат ходимлари вилоятнинг Бўстонлик, Ангрен, Оҳангарон, Паркент ва Олмалик туманлари тоғли ҳудудларидаги ғорлар, дарахтзорлар, сойларни диққат билан кўздан кечириш натижасида бегона излар ва шубҳали буюмларни аниқлашда фаоллик

кўрсатишяпти. Шунингдек, транспорт воситалари ҳаракатланиши қийин бўлган жойларга отлар ёрдамида чиқиб, ўрмон хўжалиқларига тегишли фермаларда чорва молларини боқиб юрган чўпонлар, асаларичилик билан шуғулланаётган фуқаро-

КЎЗ ҚОРАЧИГИДЕК АСРАЛМОҚДА



лар билан учрашиб, профилактик суҳбатлар ўтказишяпти. Шу аснода, вилоятнинг кўшни давлатлар билан чегарадош ҳудудларида тинчлик-осойишталикни таъминлашга муносиб ҳисса кўшиб келишмоқда.

– Асосий мақсадимиз юртимизни ҳар қандай кўнгилсизликдан, ёвуз кучларнинг қабиҳ ниятлари амалга ошишидан ҳимоялаш, – дейди бўлим бошлиғи, подполковник Даврон Акбаров. – Бу борада бор куч ва ғайратимизни ишга солиб, сарҳадларимиз дахлсизлигини кўз қорачигидек асраб келяпмиз.

Дарҳақиқат, осойишталик посбонларининг саъй-ҳаракатлари натижасида кўп-

лаб жиноятларнинг олди олиниб, содир этилганлари «иссиқ изида» фош қилин-япти. Масалан, жорий йил 22 февраль куни Оҳангарон туманида ўтказилган «Тонг» тадбирида «Ўзбекистон» маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи Бобур Сувоновнинг (исм-шарифлар ўзгартирилди) хонадони холислар иштирокида кўздан кечирилди. Бу жараёнда уйда ноқонуний равишда сақланаётган ов қуроли ҳамда гиёҳвандлик ва психотроп моддалар, шунингдек, пневматик қурол борлиги аниқланди.

Ҳозирда ҳолат юзасидан суриштирув ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент вилояти.



Жазони ижро этиш муассасаларида

БАХТГА ЙЎҒРИЛГАН ЛАҲЗАЛАР

– Тоғам ҳарбий шифокор Фанижон Турдиевга чин дилдан ҳавас қилардим. Шунинг учун бўлса керак болаликдан ҳарбий соҳага қизиқиб улғайдим, – дейди Умаржон. – Ўрта мактабнинг 9-синфини тамомлагач, Фарғона шаҳридаги ҳарбий лицей (ҳозирги «Темурбеклар мактаби»)га ўқишга кирганман. Лицейни битиргач, ИИБ Тошкент олий ҳарбий техника билим юртида таҳсил олдим.

2010 йилда ўқишни битирган ёш офицер Наманган вилояти Поп туманидаги 6-сонли жазони ижро этиш колониясида тезкор вакил вазифасида мустақил хизмат фаолиятини бошлади. То 2017 йилга қадар мазкур муассасада турли лавозимларда ишлаб, тажриба орттирди. У етук мутахассис бўлишига яқиндан ёрдам берган устозлари майор Махситали Бойқўзиёев, капитанлар Абдусамад Расулов ва Орифжон Ваҳобовнинг номларини доимо ҳурмат билан тилга олади.

2017 йилда Умаржон Ҳусанов Фарғона шаҳридаги 10-сонли тергов ҳибсхонаси тартибот бўлимида хизматини давом эттирди. Айни пайтда у ташкилий бўлимга

раҳбарлик қилмоқда.

– Подполковник Умаржон Ҳусановни кўплаб ёш ходимларга ҳар жиҳатдан ибрат қилиб кўрсатамиз, – дейди тергов ҳибсхонаси бошлиғи, майор Жўрабек Саминжонов. – Ўтган йили у ИИБ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти ходимлари ўртасида ўтказилган танловда «Энг яхши ташкилий-таҳлил бўлими ходими» номинацияси бўйича фахрли 2-ўринни олгани ҳам фикримизнинг исботи.

Лавҳамиз қаҳрамони намунали оила соҳиби. Турмуш ўртоғи билан бирга 3 нафар фарзандни камолга етказишмоқда. Иккинчи синфда ўқийдиган ўғли Муҳаммад-



али ҳалитдан ота касбига меҳр кўйган. Дадаси ишдан қайтганида, унинг бош кийимини ҳавас билан кийиб олади-да: «Дадажон, мен ҳам, албатта, сизга ўхшаб ички ишлар ходими бўламан!» дейди. Ана шундай лаҳзаларда Умаржон-

нинг чарчоқлари тумандай тарқаб, бахтдан масрурлик ҳис этади.

Абдусит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.

Фарғона вилояти.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



Молодежь – наше будущее

Старший дознаватель следственного отдела при УКД ОВД Юнусабадского района столицы лейтенант Дильшода Хужанова пришла в органы внутренних дел, следуя примеру отца – доцента кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Узбекистана, кандидата психологических наук, подполковника Рустама Душанова. Ее мама, Бурулой опа, работает компьютерной верстальщицей в издательско-полиграфическом творческом доме «O'zbekiston», является автором нескольких изданий для детей.

В Академии МВД Узбекистана Дильшода обучалась по специальности «Следственная деятельность», была одной из лучших курсанток. Вместе с однокурсницами проживала в казарме, на занятиях осваивала тонкости

юриспруденции, ходила на практические занятия, выполняла физические нормативы. Очень скучала по родным и близким, ведь в увольнение их отпускали только по воскресеньям. Однако за три года учебы Дильшода ни разу не

пожаловалась родителям на трудности, поскольку обещала, что справится с ними. Слово свое девушка сдержала.

С октября прошлого года лейтенант Дильшода Хужанова служит в следственном отделе. Ее наставник



ПУТЬ К МАСТЕРСТВУ

– старший следователь капитан Баходир Акромов. Баходир Махмуджонович ценными советами, помощью и поддержкой принимает непосредственное участие в становлении молодого специалиста.

...Поступило заявление, в котором указывалось, что Бахром Солиев (здесь и далее имена и фамилии фигурантов дела изменены) мошенническим путем присвоил денежные средства, перечисленные из России в один из отечественных банков на имя Рустама Деханова. Подозреваемый долго отрицал вину, но собранные старшим дознавателем неопровержимые доказательства говорили об обратном. Злоумышленник привлечен к ответственности.

Еще один показательный пример. В социальных сетях распространилось видео, где молодой человек в мечети крадет телефон. Оперативные сотрудники по горячим

следам нашли вора. Вести дознание поручили лейтенанту Д. Хужановой. Установлено, что подозреваемый, временно безработный Анвар Абдуллаев, приехал в столицу из Андижана. Зайдя в мечеть, он незаметно вытащил телефон из кармана куртки, висевшей у входа. Затем поехал в торговый центр «Малика», где продал телефон неизвестному лицу. Дело было передано в суд, но через некоторое время героине очерка пришлось вести дознание по новому делу, в котором фигурировал 15-летний младший брат Абдуллаева, который также попался на краже...

По общему мнению старших коллег, Дильшода Хужанова обладает большим потенциалом. Равняясь на старших товарищей, она уверенно идет по пути профессионального становления.

**Бибигуль
МУРТАЗАЕВА.**

■ Андижанская область

НА МАРШРУТЕ ПАТРУЛИРОВАНИЯ

В Пахтабадском районе проживают около 200 тысяч человек. На протяжении 40 километров он граничит с Джалалабадской областью Кыргызской Республики.

До недавнего времени на дехканском рынке и рынке промышленных товаров нередко совершались мелкие кражи, разгорались скандалы. После того как в середине прошлого года в Пахтабаде был сформирован третий межрайонный отряд ППС, количество правонарушений как на рынках, так и в районе в целом уменьшилось.

– Патрулирование осуществляется в две смены, – рассказывает командир отряда старший лейтенант Бегзод Юнусов. – Три пеших наряда и автопатруль обеспечивают стабильный общественный порядок на вверенных участках.

С начала текущего года личным составом подразделения по горячим следам раскрыто три преступления, задержано лицо, скрывавшееся от следствия.

...В вечернее время пешим нарядом для проверки документов был остановлен подозрительный молодой человек. Увидев стражей порядка, он бросил в сторону пластиковый пакет и попытался скрыться. Патрульные задержали «бегуна». Как выяснилось, в



пластиковом пакете, от которого пытался избавиться мужчина, была готова к употреблению марихуана весом 156 граммов. В отношении рецидивиста Тохира Абдуллаева (имя и фамилия изменены) возбуждено уголовное дело, ведется следствие.

Наряд автопатруля, несший службу в ночное время, заметил, как трое мужчин снимают с припаркованного возле дороги трактора детали и грузят их в «Жигули». «Ночные мастера», при виде сотрудников ОВД, разбежались. Их, конечно, задержали. Оказалось,

приятели, «остро нуждающиеся» в деньгах на покупку спиртного, следуя на «Жигулях», увидели одинокий трактор. Решили, что судьба ниспослала им подарок в виде «железного коня»... В отношении любителей чужого добра возбуждено уголовное дело.

Отлично справляются со служебными обязанностями и являются примером для других командиры отделений рядовые Мухаммадсолих Зокиров, Баходир Солиев, постовые сотрудники Муроджон Мадаминов, Ахмадзоир Хусанов.

Отряд ППС базируется на территории Пахтабадского РОВД. Для личного состава созданы необходимые условия для успешной службы.

Командир отряда Бегзод Юнусов не новичок в органах внутренних дел. Опыта ему не занимать. Выпускник Андижанского государственного университета службу начинал постовым пешего наряда. Потом несколько лет служил инспектором профилактики в Избасканском районе.

Сотрудники отряда ППС выполняют ответственные задачи по охране общественного порядка и обеспечению безопасности граждан.

**Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент
«На посту».**

На снимке: пеший наряд в составе рядовых М. Зокирова и М. Мадаминова на улицах Пахтабада.

Фото автора.



■ Samarqand viloyati



ENG QIYINI – DALILNING YO‘QLIGI

– deydi katta tergovchi,
kapitan Aziz Ishmurodov

**Dalillarni to‘plash, hodi-
sa joyini ko‘zdan kechirish,
guvohlarni so‘roq qilish, yuz-
lashtirish, tintuv o‘tkazish**
**Oqdaryo tumani IIB katta ter-
govchisi, kapitan Aziz Ishmuro-
dovning kundalik ishi.**

2018-yilda IIV Akademiyasini tamomlagan qahramonimiz ilk xizmatini Samarqand shahar IIBda boshlagan. Uning kasb tanlashida ichki ishlar organlarida uzoq yillar samarali xizmat qilgan otasi, iste‘fodagi starshina Ma‘rufjon Turdiyevning ta‘siri kuchli bo‘lgan.

– Tanlagan kasbimning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor, – deydi qahramonimiz. – Bunda insonni tushunish, uning asl qiyofasini ko‘ra bilish va yolg‘onlarini fosh etish juda qiyin. Qolaversa, odamlar har doim ham rost so‘zlamaydi. Kimdir javobdan qochishga harakat qilsa, afsuski, oramizda yolg‘onga ishoniradiganlar ham bor. Tergov jarayonida eng qiyini – hech bir dalilning yo‘qligidir. Afsuski,

jinoyatchilar yildan-yilga o‘z «mahorat»larini oshirib, professional bo‘lib bormoqda va iz qoldirmaslikka harakat qilishmoqda. Bu tergov jarayonlarini yanada sinchkovlik bilan olib borishni taqozo etadi.

Hududda jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining oldini olish, sodir etilganlarini tezkorlikda fosh etish maqsadida yo‘llar, binolar, inshootlar yaqinida va hatto mahallalarda videokuzatuv kameralari o‘rnatilmoqda. Shubhasiz, videokameralar o‘rnatilgani tergov jarayonini ancha osonlashtirdi. Shuningdek, tergov ishlari odatda ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari xodimlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik jinoyatni qisqa vaqt ichida ochish va tizim xodimlari o‘rtasidagi xizmat aloqalarini yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Zero, kengashib qilingan ishning yakuni chiroyli bo‘ladi.

Zamira BALTAYEVA,
«Ha nocty» muxbiri.

Saltanatni idora qilish tuzuki

Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipoh-u raiyatga soqchilik qilsin, kimning biron narsasi o‘g‘irlansa, buning mas‘uliyati uning zimmasida bo‘lsin.

Va yana buyurdimki, yo‘l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar. Yo‘l ustida birortasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa yoki boshqa kori hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lsin.



■ Qoraqalpog‘iston Respublikasi

TOPILMALAR «TIL»GA KIRGANDA...

Qo‘ng‘irot tumani IIBga tuman hududidan o‘tuvchi temiryo‘l bekating 17-sonli aylanma hududida bir murda topilganligi yuzasidan xabar kelib tushdi. Tergov-tezkor guruhi voqea joyiga chiqib o‘rganganida murdani qo‘li bog‘langani, boshining orqa tomonida tan jarohatlari borligi aniqlandi.

Holat yuzasidan olib borilgan dastlabki surishtiruv tug‘ilgan harakatlari davomida u 1971-yili shu tumanda yashovchi B.M. ekanligi va oilasidan ajrashganligi bois yolg‘iz yashab kelayotganligi oydinlashdi.

Voqea joyidagi ashyoviy dalillarni o‘rgangan ekspert-kriminalistlar shisha siniqlaridan notanish kishining barmoq izlarini topishdi. U bazadagi barmoq izlari bilan solishtirib ko‘rilganida, uning Sho‘manay tumanida yashovchi, mavsumiy ishchi T.A.ga tegishli ekanligi aniqlandi. Ushbu shaxs ichki ishlar bo‘limiga olib kelib suhbat o‘tkazilganida avaliga u osoyishtalik posbonlarini chalg‘itmoqchi bo‘ldi, keyin inkor etib bo‘lmas dalillar keltirilganidan so‘ng jinoyatni sodir etganligini tan oldi. Xullas, ulfatlar birgalikda spirtli ichimlik iste‘mol qilishgan. Keyin o‘rtada kelib chiqqan janjal tufayli u ulfatining boshiga shisha bilan urgan. Bu kamlik qilgandek, kamari bilan bo‘g‘ib o‘ldirgan. So‘ng marhumning ikki qo‘lini birlashtirib bog‘lab, uning cho‘ntagida bo‘lgan uyali telefon apparatini olib voqea joyidan ketgan.

Birgina shisha siniqlarida qolgan barmoq izi jinoyatning fosh etilishiga zamin yaratdi. Bunda esa eng kichik narsalarni ham sinchkovlik bilan o‘rganadigan ekspert-kriminalist-

lar xizmatining naqadar ahamiyatli ekanligi namoyon bo‘ladi.

Joriy yilning fevral oyida Nukus shahar dehqon bozori hududida joylashgan do‘konda sodir etilgan o‘g‘rilik ham ekspert-kriminalistlarining o‘rganishlari tufayli fosh etildi. Do‘kondan umumiy bahosi 40 million so‘mdan ortiq uyali telefonlar o‘g‘irlangan edi. Voqea joyini o‘rgangan mutaxassislar jinoyat joyidan topilgan barmoq izlarini o‘rganish jarayonida barmoq izlari Xo‘jayli tumanida istiqomat qiladigan ikki nafar shaxsga tegishli ekanligi aniqlandi. Shu asosda jinoyat fosh etilib, o‘g‘irlangan buyumlar topildi.

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV Ekspert-kriminalistika markazi va uning joylardagi guruhlari jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni «issiq izida» fosh etish tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda, – deydi markaz boshlig‘i, podpolkovnik Mubarek Nizamatdinov. – Joriy yilning o‘tgan davrida ekspertlarimiz 135 marta hodisa joyiga chiqib, 300 dan ortiq ashyoviy dalilni to‘plashdi. 446 dona yaroqli qo‘l barmoq izlari olindi. Respublika miqyosida sodir etilgan har xil jinoyatlar bo‘yicha 3 ta subyektiv portretlar tuzildi.

Hozirgi kunda markaz dakti-loskopik, trasologik, ballistik, xatshunoslik, hujjatlar texnik-kriminalistik ekspertizasi, portret va sovuq qurollar tadqiqoti, fizik-kimyoviy ekspertiza o‘tkazish bo‘yicha maxsus ruxsatnomalarga ega bo‘lib, shu turdagi ekspertizalar mahorat bilan o‘tkazib kelinmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
«Ha nocty» muxbiri.



✓ *Эҳтиёт бўлинг: фирибгар!*

АМЕРИКАГА «САЁХАТ» АМАЛГА ОШМАДИ

Мол бозорига яқин орада бормаган одам у ердаги ажабтовур ҳолатлардан ҳайратга тушади. Ишонмасангиз, қуйидаги воқеага қулоқ тутинг.

Бозор ўртасида ака ўз укасининг молини гўёки сотиб олиш учун баланд овозда савдо қилади. Ука ёлғондакам оёқ тираб туриб олади. Ака кечаси шўр ем бериб, ўта чанқанган ва бозорга чиқиши олдидадан обдан суғорган говмишига ўзи харидор. Ол-а! Бозор нархи 8 миллион бўлган қорамолни ака 9 ярим миллион сўмга беришни сўраб, қўлини силкитиб туради. Мол «эгаси» кўнавермагач, қўлини қўйиб юбориб, нари кетади. Буларнинг ака-ука эканидан беҳабар, бозорга эндигина келган харидор лаққа тушади. Сигирни нақд 10 миллион сўмга олиб, уйига равона бўлади. Ака-ука эса фириблари иш



берганидан хурсанд бўлиб, пулни бўлишишади.

Яқинда Гулистон шаҳрида худди шунга ўхшаш бир ҳодиса содир бўлди. Бу гал фирибгарлар Америкага бориш орзусида юрганларни чув туширмоқчи бўлишди.

Баҳодир Жалилов (исм-шарифлар ўзгартирилди) анчадан бери турмуш ўртоғи билан «сеҳрли диёр» – АҚШга бориш орзусида яшарди. Бир-икки дўсти уммон ортида бўлиб, яхшигина бойиб кетганидан хабардор. Ойига 4–5 минг АҚШ доллари миқдориди маош, ажойиб турмуш шароити уни ҳам қизиқтириб қўйган. Шу боис қандай бориш кераклигини суриштирди. Унга «Суарес» лақабли кимсани

тавсия этиб, кифтини келтириб таърифлашди. Устмонлигини, қўлидан келмайдиган ишнинг ўзи йўқлигини, танишлари кўплигини айтишди. Баҳодир буларнинг барчаси «реклама» экани, аслида, ушбу шахслар «Суарес»нинг ташвиқотчилари эканини қайдан ҳам билсин?

Биринчи учрашувдаёқ, «Суарес» Баҳодирни сеҳрли диёрда доллар ариқдаги сувдек оқиб ётиши каби эртакнамо гаплар билан авради. Америкага бориш учун 40 минг доллар кетишни, бу пулларни 5–6 ойда чиқариб олишини қайта-қайта таъкидлади.

Режага кўра, фирибгарлар турли схемалар орқали Баҳодир ва унинг хотинини Канада ёки Мексикага юборишади. У ерда уларни ишончли одамлар кутиб

олиб, чегарадан АҚШга ўтиб олишларига кўмаклашишади. Қолгани ўзларига боғлиқ. Ишга жойлашиш муаммо эмас. Баҳодир режага кўнди. Лекин...

Келишилган куни Гулистон шаҳридаги деҳқон бозори худудидида Баҳодирдан фуқаро О.А. 40 минг АҚШ долларининг 12 мингини олаётган вақтида тезкор ходимлар томонидан қўлга олинди. Гап шундаки, АҚШга юбормоқчи бўлган шахсининг айрим гап-сўзлари, ҳаракатлари Баҳодирда шубҳа уйғотган, шу сабабли у тегишли ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга хабар берганди. Натижада фирибгарлик йўли билан ўзгаларнинг пулини ўзлаштирмоқчи бўлган шахсининг ноқонуний хатти-ҳаракатларига чек қўйилди. Бошқача айтганда, Америкага «саёҳат» амалга ошмади.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
«Postda» мухбири.

Сирдарё вилояти.

■ Наманган вилояти

УЛАР ҲАҚИДА ҲАММА ҚАЙҒУРИШИ КЕРАК

Ҳаётда нималар бўлмайди, дейсиз. Баъзан муҳит сабаб, турмушдаги муаммолар, қийинчиликлар туфайли нотўғри йўлни танлаган ёшлар, ўсмирлар орамизда учраб туради. Наманган вилояти ИИБ ҚПБ тасарруфидаги Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш маркази ана шундай тоифадаги болаларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиб келмоқда.

Биргина ўтган йилнинг ўзида марказга 2277 нафар вояга етмаган келтирилди. Шундан мактаб ўқувчилари 1998 нафар, касб-ҳунар мактаблари ўқувчилари 186 нафар, ўқимайдиган ва ишламайдиганлар 93 нафарни ташкил этди. Уларнинг ёши бўйича таҳлил қилинганида, 582 нафари 7–13 ёшда, 1686 нафари эса 14–17 ёшда экани ойдинлашади.

– Ачинарлиси, марказга келтирилган 2150 нафар вояга етмаганнинг ота-онаси бор, – дейди марказ ходими, майор Хайрулло Жўраев. – Ота-онаси ёки улардан бири узоқ муддатга кетиб қолганлари 85 нафарни ташкил этиб, келтирилганларнинг 12 на-

фарига васийлик белгиланган. 15 нафари республика ўқув-тарбия муассасасига юборилган.

Таъкидлаш керакки, марказга баъзан ўзининг ҳақ эканини исботлаш учун ота-онаси билан келишолмай қолган ўсмирлар ҳам келтирилади. Яқинда шундай воқеа бўлди: бир ўсмир бола спорт мактабига бормоқчи эканини айтиб, ота-онаси билан жанжаллашиб, уйдан қочиб кетади. Марказ ходимлари томонидан бола Наманган олимпия захиралари коллежига шахмат тўғарагига йўналтирилиб, у уйига қайтганда ҳам тўғаракка бориши кафолатланди. Боланинг ота-онаси билан суҳбатлашилиб, тушунти-



рилди. Орадан ҳеч қанча вақт ўтмай, у шахмат бўйича республика мусобақасида қатнашганини айтиб, марказга қўнғироқ қилди.

Таассуфки, аксарият ҳолатларда болаларнинг нотўғри йўлга кириб кетишига уларнинг оилавий муҳити, ота-онасининг лоқайдлиги сабаб бўлмоқда.

Жорий йилнинг 25 феврал куни Учқўрғон тумани ИИБ ходимлари томонидан назоратсиз ва қаровсиз қолган асранди қиз марказга олиб келинди. Қизнинг онаси уни яқин

танишига қонуний равишда боқиб олиш учун берган, ҳатто исм-фамилияси ҳам янги ота-онанинг номига расмийлаштирилган. Сўнг-ра қиз янги ота-онаси билан Давлатобод туманига кўчиб кетади. Кўп ўтмай, она ва қиз ўртасида жиддий муаммолар келиб чиқа бошлайди. Кўча болаларига қўшилиб қолган, кунора уйдан кетиб қолишни одат қилган қизга насиҳат ҳам, яхши гап ҳам кор қилмайди. Шундан сўнг боқиб олган ота-онаси қизни ўз онасига қайтариб беришга

қарор қилади. Қизнинг ҳақиқий онаси эса фарзанди тақдирига бефарқ бўлиб, уни қаровсиз қолдириб, хорижга ишлаш учун кетади.

Ана шундан кейин ўсмир қиз кўнглига келган ишни қилишда давом этди. Бир неча бор марказга келтирилиб, тартибга чақирилди. Наф бўлмади. Қизни боқиб олган ота-онаси эса унга васийлик белгилаш тўғрисида тушунтириш хати берди. Тўпланган ҳужжатлар қонуний тартибда ҳал этиш учун Учқўрғон тумани ҳокимлигига юборилди.

Ҳаётида боши берк кўчага кириб қолаётган болалар, ўсмирлар, ёшларни тўғри йўлга солиш фақат юқоридаги каби марказларнинг иши эмас. Бундай тоифадаги болалар ҳақида қайғуриш, меҳр кўрсатиш, тўғри йўлга бошлаш ҳақида барчамиз ўйлашимиз керак.

Гулчеҳра
БУВАМИРЗАЕВА,
«Postda» мухбири.



Salomatlik saboqlari

BAHORDA ZO'RAYADIGAN KASALLIKLAR

Oshqozon yarasi

Asosan, aprel oyida kasallikning belgilari kuzatila boshlaydi. Buning sababi aniqlanmagan. Kasallik zo'raygandagi belgilari: qorin och paytidagi og'riq, kechasi boshlanadigan og'riq, ko'ngil aynishi, og'izdan yoqimsiz hid kelishi...

Me'da yoki ichak yarasi zo'rayishiga yo'l qo'ymaslik uchun mavsum yaqinlashishi bilan oldini olish tadbirlarini ko'rish darkor. Me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi gastrit kabi organizmda Helicobacter pylori bakteriyasi sabab kelib chiqadi. Bu bakteriya organizmimizga zarar yetkazishidan oldin immunitetni kuchaytirish lozim. Buning uchun quyidagi qoidalarga qat'iy rioya qilishimiz kerak bo'ladi:

Me'da yarasi kasalligi bilan kasallangan kishilar bir kunda 5-6-marta taomlanishi. Taomnomasidan faqat yumshoq ovqatlar joy olishi lozim. Asosan qaynatilgan va dimlangan taomlar iste'mol qilish, kletchatkasi ko'p bo'lgan mahsulotlar – mosh, no'xat, loviya, qo'ziqorin, yong'oq, kepakli non,



limon, nordon olmalar, qahva, alkohol va gazli ichimliklar, kefir, sut, tortlar, nordon va pishmagan mevalar hamda qattiq go'shtni esa taomnomadan o'chirgan ma'qul. Parhezga amal qilish shart.

Asab tizimi kasalliklari

Biologik soat ishining buzilishi va bahoriy o'zgarishlar sabab ruhiy siqilish hamda asabiylashish holatlari ko'payishi kuzatiladi. Agar atrofdagilardan va o'z ishingizdan qoniqmaslik hissini sezsangiz hamda ko'nglingizni umidsizlik egallab olsa, unda aprel oyi boshlarida ko'proq toza havoda sayr qilish, uyquga



vaqtliroq yotish, jismoniy mashqlarni bajarish tavsiya etiladi. Agar bu ham yordam bermasa, bir-ikki haftaga ishdan ta'tilga chiqib, o'zingizga dam berishingiz lozim. Kasallikni davolagandan ko'ra, oldini olgan ma'qulligini unutmang.

Shamollash

Havoning tez-tez o'zgarib turishi, immunitetning tushib ketishi bahorda yuqumli va bronxial kasalliklarning rivojlanishiga sharoit yaratadi. Yana sistit, gaymorit xurujlari kuchayadi. Ammo to'g'ri ovqatlanish, vitaminlar va viruslarga qarshi dorilar yuqumli kasalliklar bilan kurashishda immunitetni mustahkamlaydi. Shaxsiy gigiyena qoidalarga rioya qiling, ko'chadan kelgach, qo'lni obdan yuving va xonalarni shamollatib turing.

Allergiya

Bu eng ko'p tarqalgan bahorgi kasalliklardan biri. Allergiyaga moyillik, asosan, irsiyatga bog'liq



bo'ladi. Bu kasallikning bahorda zo'raymasligi uchun iloji boricha ertalab soat 11 ga qadar ko'chaga chiqmaslik hamda quyoshli yoki shamolli kunda deraza oynalariga nam matolar osib qo'yish shart.

Teri kasalliklari

Yana bu oyda husnbuzarlar avj oladi. Nafaqat balog'at yoshidagilarda, balki 20 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlarda ham toshishi mumkin. Husnbuzarlar mavsumiy omillar ta'sirida teri osti yog' bezlari o'z funksiyasini bajara olmagan sababli yuzaga keladi. Bu mavsumda mikroob, bakteriyalar faollashadi. Agar organizmning immuniteti me'yorda bo'lsa buning xavfi yo'q. Lekin aksincha bo'lsa, terida mayda toshmalar toshishi, shamollash, ko'zda konyuktivit boshlanishi mumkin. Bularning oldini olish uchun vitaminlar iste'mol qilib turish kerak.

M.AHADOV tayyorladi.

ДВИЖЕНИЕ – ЭТО ЖИЗНЬ!

Малоподвижный образ жизни (гиподинамия) всегда считался губительным для здоровья. Его последствия – ожирение, гипертония, диабет. Недостаток движений отрицательно влияет на протекание сложных биохимических и физиологических процессов в нашем организме. При этом резко снижается функция центральной нервной системы, быстрее наступает утомление, человек становится вялым, рассеянным. Определенные сдвиги происходят в сердечно-сосудистой системе. Снижается деятельность гормонов, наблюдается ухудшение общего обмена веществ. С возрастом этот процесс усугубляется.



Человеку надо двигаться при любой возможности. Например, бегом подниматься по лестнице, устраивать себе физкультминутки во время работы в офисе и больше ходить пешком.

Регулярные физические нагрузки помогают людям обрести: жизненную энергию; полноценный и приятный отдых; способность справиться с последствиями стрессов; меньшую подверженность депрессии, ипохондрии, мнительности; хорошее самочувствие; уверенность в собственных силах; красивую фигуру; крепкие кости; глубокий полноценный сон; замедление процессов старения; повышенную работоспособность, упорство в достижении целей.



РЕКОМЕНДУЕМЫЕ УРОВНИ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ

Дети в возрасте 5-17 лет должны уделять нагрузкам, от умеренной до высокой интенсивности, не менее 60 минут в день. Более 60 минут движения в день принесут дополнительную пользу для здоровья. И как минимум три раза в неделю надо заниматься, чтобы развить скелетно-мышечную систему.

Взрослые люди в возрасте 18-64 лет должны уделять физической активности умеренной интенсивности не менее 150 минут в неделю, физической активности высокой интенсивности – не менее 75 минут в неделю или уделять время сочетанию физической активности средней и высокой интенсивности.

Для того чтобы занятия приносили дополнительную пользу, можно увеличить время движений средней интенсивности до 300 минут в неделю или иным способом достичь аналогичного уровня нагрузки.

Силовые упражнения, в которых задействованы основные группы мышц, следует выполнять два раза в неделю или чаще.

Проконсультируйтесь с врачом.

ORIYAT USTUNLIGI – YURT USTUNI EMASMI?

Insonning yuzini shuvut qiladigan amallarning eng yomoni oila va nasabga taalluqli isnodlardir. Ya'ni, zino, pokiza va mo'mina ayollarga tuhmat qilish, ota-onaga oq bo'lish, qarindoshdan aloqani sababsiz uzish, xotin erining yaxshiliklarini inkor etishi hamda qo'shniga ozor berish shular jumlasidan.

Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan shaxslar ham gunoh ishga qo'l urganlardir. Aniqrog'i, so'z erkaklarning xurmacha qiliqlari xususida boradi...

Telegram saytida o'qib qoldim: erkak qo'shmachilik qilibdi. Bu uyatli ish, gunoh, sha'niga dog' tushirish emasmi?! Qolaversa, g'urur va oriyat degan narsalar bor. Undan hech narsa ustunlik qilmaydi.

Misol uchun aytadigan bo'lsak, Peshku tumanining «Yangibozor» mahallasida yashovchi, 1981-yilda tug'ilgan S.SH. ham erkak nomiga dog' tushirdi. U o'z xonadonida fohishaxona tashkil etib, begona shaxslarning jinsiy aloqa qilishlari uchun muayyan sharoitlar yaratib kelgan. Albatta, buning evaziga moddiy manfaatdor bo'lgan.

Buxoro shahrida yashovchi, endigina o'n sakkiz yoshga qadam qo'ygan X.A. va A.I.ning qilmishi hammasidan oshib tushdi. Ular bir qizning behayo videolarini tarqatish va sharmanda qilish bilan qo'rqitib, 15 million so'm pul talab qiladi.

Ya'ni, shu yilning 6-fevralidan boshlab, qizdan bir necha marotaba pul so'rab, jami 9 million 900 ming so'm miqdoridagi pullarni olishadi. Ammo shu bilan ham kifoyalanmasdan, yana qolgan 4 million 100 ming so'm miqdoridagi pullarni berishga majbur qilishadi. Qiz noiloj ichki ishlar organiga ariza bilan murojaat etadi. Shundan so'ng ularning qilmishi tezkor tadbirida ashvoviy dalillar bilan fosh qilinadi.

Bu ikkala holat ham biz uchun, oila va jamiyatimiz uchun isnod. Bir o'ylab ko'raylik, shunday insonlar bir oilaning ustuni bo'la oladimi? Yoki ular jamiyatimizga nima bera oladi? Voyaga yetkazayotgan zuriyotlari-chi? Chunki qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naql bor. Qolaversa, donishmandlardan biri: «Odam o'z eliga yaxshilik qilish bilan yurtning ulug'iga aylanadi», degan ekan. Shu bois ham har



bir inson yaxshilik qilishni o'ylashi kerak. Ayniqsa, erkak kishi o'ziga yarashadigan amallari bilan ajralib turadi.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan halollikni ulug'lagan. Luqmai halol, harom, makruh degan iboralar bejiz aytilmagan. «Halollikning ildizi mingta, haromning ildizi bitta», «Haromdan hazar qil», degan naqlar hayot kuzatuvlaridan kelib chiqib aytilgan. Nomus – iymonning libosi, hayoning egachisi. Uni yo'qotish iymondan yuz o'girish bilan barobar.

Xulosa o'rnida bir hadisni keltirib o'tsam. Unda aytilishicha, munofiqlarning uch belgisi bo'lur:

yolg'on gapirmoq, tuhmat qilmoq, zinoga bosh qo'shmoq. Tubanlik botqog'iga botib, zalolatga yuz burgan, o'z xonadonini islovotxonaga aylantirgan yoki birovlariga tazyiq o'tkazib qo'rqitish orqali boyluk orttirmoqchi bo'lgan yuqoridagi kabi kishilar ana shunday munofiqlardandir. Shuningdek, el orasida buzg'unchilik qilib, fahsh ishlarga aralashib yuruvchi bunday kimsalarga shariatda ham, qonunda ham jazo belgilangan. Shunday ekan, illat urchimasidan avval uning ildiziga bolta urmoq darkor.

Mirzoqul AHADOV,
«Postda» muxbiri.

Buxoro viloyati.

IIV IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNATI 2023–2024-o'quv yili uchun tanlov e'lon qiladi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati 2023–2024-o'quv yili uchun umumta'lim muassasalarining 4-sinfini tamomlayotgan (o'g'il bolalar) o'quvchilarni tanlovlarda ishtirok etishga taklif etadi.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internatga o'qishga har yilgi qabul kvotasi 50 nafar o'quvchini tashkil etib, uning 80 foizi ichki ishlar organlari xodimlari va 20 foizi boshqa fuqarolar farzandlariga taqsimlanadi.

Jamoat tartibini saqlashda, jangovar harakatlarda, terrorchilikka qarshi operatsiyalar o'tkazishda, favqulodda holat tartibini huquqiy ta'minlash va ularning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etgan vaqtda halok bo'lgan xodimlarning farzandlari o'qishga tanlovsiz qabul qilinadi.

Farzandlarini maktab-internatga o'qishga kirish istagini bildirgan otalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar doimiy yashash joyidagi hududiy ichki ishlar boshqarmalariga belgilangan shakldagi ariza bilan murojaat qilishlari talab etiladi.

Farzandlari maktab-internatga o'qishga kirish istagini bildirgan xodimlar bevosita ichki ishlar organlarining rahbarlariga bildirgi bilan murojaat qiladi.

ARIZALAR JORIY YILNING 15-APRELIDAN 1-IYUN KUNIGA QADAR QABUL QILINADI.

Tanlov quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- hujjatlarni to'plash va o'rganish;
- orfografik va punktuatsion savodxonlik darajasini aniqlash;
- umumjismaniy tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- yakuniy test sinovlari.

Nomzodlarni umumta'lim fanlari (ona tili va adabiyot hamda matematika) bo'yicha bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan test sinovlari asosida o'tkaziladi.

Tanlov shartlariga ko'ra, diktant hamda umumjismaniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bosqichlari natijalari bo'yicha 6 (olti) balldan kam ball to'plagan nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlariga kiritilmaydi.

Test sinovlari o'qishga qabul qilishning hal qiluvchi bosqichi hisoblanib, xodimlar va boshqa fuqarolar uchun ajratilgan qabul kvotalari doirasida test sinovlari natijasi bo'yicha to'plagan ballaridan kelib chiqqan holda navbatdagi ketma-ketlik tartibiga muvofiq nomzodlar tanlab olinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 11-mavze, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 64-uy.

Murojaat uchun telefon: +99899-878-37-06.



✓ Рекомендовано к чтению

«НОЧЬ И ДЕНЬ» – ВЕРШИНА ТВОРЧЕСТВА ЧУЛПАНА



Абдулхамид Сулейман угли Чулпан (1897 – 1938) родился в Андижане в просвещенной семье. Свое образование он начинает в медресе, где помимо изучения обязательной учебной программы активно интересуется философией, историей, глубоко проникает в неповторимый мир классической поэзии. Проявив незаурядные способности в изучении языков, он в подлиннике читает произведения Фирдоуси, Саади, Хафиза, Омара Хайяма, позднее – произведения европейских авторов.


Творческий путь литератора начинается с публикаций стихотворений, рассказов, публицистических статей в газете «Садои Туркистон», которые он подписывал главным образом псевдонимом Чулпан, что означает «утренняя звезда».

Это была яркая, одаренная личность. Лирика Чулпана заложила основы современной узбекской поэзии, его драмы обогатили узбекский театр, а прозаические произведения стали серьезной вехой в развитии отечественной литературы. Чулпан мастерски перевел на узбекский язык трагедию Шекспира «Гамлет», пьесы Гоцци и Гольдони, произведения Пушкина, Гоголя, Чехова и др.

В 1936 году выходит в свет социально-психологический роман «Ночь и день», ставший вершиной творчества Чулпана. Произведение оказало огромное влияние на формирование традиций узбекской романистики.

Второй в истории узбекской литературы роман «Ночь и день» отражает события в жизни Туркестана в преддверии Первой мировой войны. Действие происходит в колониальной волости. В действиях персонажей отражены мрачные реалии жизни того периода – нравственного упадка, духовной деградации, что ассоциируется с ночью.

Мирякуб, возможно, единственный из героев романа, который обладает огромным количеством характеристик, порой самых противоречивых. Начинается описание героя с упо-



сюжетные линии и основная идея произведения концентрируются вокруг Зеби, Мирякуба и Шарафутдина Ходжаева. В ранних исследованиях романа отмечено, что история Зеби выдвигает на передний план тему о правах женщины, которая испокон веков была актуальной. Это ярко выражено в первых главах, где через Зеби раскрываются персонажи, связанные с ней. Трагедия, случившаяся с Зеби, привела ее на скамью подсудимых. В сцене суда над Зеби писатель выплескивает всю палитру своих чувств и эмоций, противопоставляя простодушие и беззащитность девушки хитрости и коварству чиновников.

Успех произведения объясняется тем, что оно создано в лучших традициях мировой романистики. Это находит отражение в композиции, конфликте, образной системе.

Роман «Ночь и день» остается одним из самых востребованных среди отечественных читателей разных возрастов, свидетельствуя о неугасающем интересе к творчеству писателя – представителю джадидизма, чье сердце было наполнено чувством глубокого беспокойства за судьбу Родины и народа.

Произведение экранизировано режиссером Мажудом Юнусовым. Видеофильм представлен в 6-ти частях. В картине снималась плеяда ярких актеров Узбекистана.

минания прозвища, «подаренного» ему жителями кишлака: «эпа-ка» – «ловкач». Они же считают его «асл мингбоши» – «истинным мингбаши», потому что знают, что Акбарали мингбаши держится у власти только благодаря Мирякубу. Однако, пытаясь охарактеризовать род его деятельности, Чулпан вынужден чаще исходить из отрицаний: не облеченный властью человек, и для мингбаши он не секретарь, не переводчик...

Есть мнение, что ни одного из персонажей романа нельзя выделить как «главного героя», поскольку

сюжетные линии и основная идея произведения концентрируются вокруг Зеби, Мирякуба и Шарафутдина Ходжаева. В ранних исследованиях романа отмечено, что история Зеби выдвигает на передний план тему о правах женщины, которая испокон веков была актуальной. Это ярко выражено в первых главах, где через Зеби раскрываются персонажи, связанные с ней. Трагедия, случившаяся с Зеби, привела ее на скамью подсудимых. В сцене суда над Зеби писатель выплескивает всю палитру своих чувств и эмоций, противопоставляя простодушие и беззащитность девушки хитрости и коварству чиновников.

Успех произведения объясняется тем, что оно создано в лучших традициях мировой романистики. Это находит отражение в композиции, конфликте, образной системе.

Роман «Ночь и день» остается одним из самых востребованных среди отечественных читателей разных возрастов, свидетельствуя о неугасающем интересе к творчеству писателя – представителю джадидизма, чье сердце было наполнено чувством глубокого беспокойства за судьбу Родины и народа.

Произведение экранизировано режиссером Мажудом Юнусовым. Видеофильм представлен в 6-ти частях. В картине снималась плеяда ярких актеров Узбекистана.

Азиза БОХОДИРОВА, капитан.



ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 17 по 23 апреля)



Овен. Вы можете оказаться в эпицентре событий. Зная это, проявите осторожность: не провоцируйте агрессию и не отвечайте, если кто-то ее проявит. Желательно уделить больше внимания семье, она сейчас ваша опора и поддержка.



Телец. Период противоречивый. Начало выдвигается беспокойным и тяжелым. Возможны проявления негативных эмоций и различные нападки со стороны людей, которым вы привыкли доверять. Одолеют и финансовые заботы. Но уже к середине недели все наладится, и вы заживете полной жизнью.



Близнецы. Будете находиться в постоянных контактах с самыми разными людьми. И хотя в целом они будут приятными и полезными, стоит все же проявить осторожность: кто-то может расстроить вас, а то и вовсе навредить. Это, впрочем, не касается вашей семьи, где сейчас будет царить полная гармония.



Рак. Можете потерять контроль над своими чувствами. На работе больше других коллег будете переживать об исходе коллективных начинаний, а в семейной жизни поводом для тревог могут стать небольшие разногласия с домочадцами. Если для успокоения вы возьметесь за рутинные дела, то быстро их переделаете.



Лев. Получите отличную возможность упрочить свой лидерский статус на работе или в домашних стенах, только надо отказаться от пафоса, зазнайства и деспотизма, иначе неприятностей не избежать. Определенные беспокойства может доставить здоровье кого-то из членов семьи.



Дева. Вас ожидает огромный поток новостей, некоторые из них заставят вас пересмотреть свои ближайшие планы и потребуют каких-то расходов. Речь, скорее всего, идет о приятных событиях. На работе ничего особенного не произойдет, но сейчас не лучший момент, чтобы обращаться к начальству с просьбами.



Весы. Предстоит вполне благополучная неделя. И самочувствие, и отношения с близкими, и ситуация на работе, и текущий доход будут удовлетворять вас настолько, что захочется расслабиться и абстрагироваться от суеты. Если вдруг активизируются недоброжелатели, вы с ними справитесь.



Скорпион. Научитесь слушать собеседников, или хотя бы просто кивайте в ответ на их эмоциональные монологи. В ходе одного из них прольется свет на какой-то важный вопрос, будет озвучен некий секрет, конфиденциальная информация. В выходные вероятно встреча с давним другом.



Стрелец. Не стоит тратить время и силы на дела, предполагающие отдаленные результаты. Обстоятельства могут кардинально измениться, и задумки утратят актуальность. Займитесь собой, своим самочувствием, берегите эмоциональный настрой. В выходные чей-то визит причинит вам сильнейшее раздражение.



Козерог. Вы будете пользоваться большой популярностью у окружающих. Кто-то завоеует уважение в профессиональном сообществе, кто-то – душой дружеской компании. Не забывайте о семье: кому-то из родственников потребуется ваша помощь.



Водолей. Категорически не рекомендуется учить, наставлять или критиковать кого бы то ни было. Даже разборки с провинившимися детьми лучше отложить. И уж тем более не делайте замечаний посторонним. А вот новые знакомства – и деловые, и личные – будут удачными.



Рыбы. Не следует игнорировать тот или иной неприятный симптом. Возможно, речь идет не о болезни, а о хроническом стрессе, с которым также нужно активно бороться. Постарайтесь устроить себе непродолжительный отпуск, выкраивайте час-другой в день для отдыха, приятного общения, хобби.





Men sevgan adib

O'ZBEK XALQINING OTASHIN SHOIRI

O'zbek xalqining otashin shoiri, ulug' adibi G'afur G'ulom 1903-yilning 10-mayida Toshkent shahrida tavallud topgan. U bolalik kezarida, aniqrog'i, 9 yoshlarida otasidan judo bo'ladi. Oradan ko'p o'tmay, onasi vafot qiladi. Endi butun oila mas'uliyati yosh G'afurning gardaniga yuklanadi. U o'zining jonajon singillari uchun ham ota, ham ona maqomida edi.

G'afur G'ulom o'smirlik yillarida ro'zg'or tebratish, qora qozonni qaynatish uchun turli yumushlarni bajaradi. Keyinroq bosmaxonaga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi. Shu yerdagi ustozining maslahati bilan o'qituvchilar tayyorlash kursida o'qiydi. Uni bitirgach, 1919-yilda «Bodak» mahallasidagi «Cho'lpon» nomli maktabga o'qituvchi etib tayinlanadi. 1924-yili «Hayot» maktabida, keyinchalik «Umid» musiqa bilim yurtida ishlaydi. 1926-yili 3-bolalar uyiga mudir etib tayinlanadi.

Men adibning she'rlarini ham, nasriy asarlarini ham maroq bilan o'qiyman. Uning, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi yillarida yozgan «Kuzatish», «Sog'inish», «Men yahudiyman», «Sen yetim emassan», «Xotin», «Qish», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «G'oliblar», «Vaqt» she'rlari menda katta taassurot qoldirgan. Quyida uning «Kuzatish» she'ridan olgan taassurotlarimni siz bilan o'rtoqlashmoqchiman. Ushbu she'ni shoir o'g'li Jo'raxonning harbiy xizmatga chaqirilishi munosabati bilan yozgan. She'rda ijodkorning otalik mehri tabiiy, samimiy tarzda o'z aksini topgan:

*Kulumsab turguvchi toleying porloq,
Xuddi shu yil tappa-taq o'n sakkiz yoshing.
Vatan qirg'og'iga yov qo'ymish oyoq!
Jangga yur, Jo'raxon, xalqlar yo'ldoshing!*

Shoir urush olovini yoqqan kimsalarga o'zining nafratini yosh bola tilidan shunday ifodalaydi:

*Fe'lini bilasan O'sar polvonning,
Hoziroq sendan ham otashin-olov.
It ko'rsa «Gitler» der, mushuk – «Mussolin»,
Manjalaqi har hayvon doim unga yov.*

Ijodkorning urush yillarida yaratilgan she'rlari xalqimizning vatanparvarlik tuyg'ularini jo'sh urdirgan. Jumladan, ushbu she'rini ham mardlikka da'vat, g'alabaga bo'lgan yuksak ishonch ruhi bilan yakunlaydi:


*Bobolar udumin tutib nazarda
Kurashda toleying bo'lur senga yor.
Chunki bu kurashda ulug' sarkarda –
Adolat bayrog'i bizga iftxor.*

*Saflar oldida bo'l, mard bo'l, botir bo'!!
Do'stlarga hamohang jo'ra bo'l, jo'r bo'!!
Ona yurt hurmati, Vatan hurmati,
Xalqimning hurmati, g'olib bo'l, zo'r bo'!!*

G'afur G'ulom men sevgan adiblar sirasiga kiradi. Doimo uning she'rlarini o'qib, ma'naviy kuch olaman. Hajviy hikoyalarini mutolaa qilganimda esa, dildan yayrab kulaman, adibning badiiy mahoratiga qoyil qolaman.

Aziza ABBOSOVA.

KINOLOGIYA XIZMATI



Postda
Ha noqiy

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
Georgiy PETROSYAN

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonalar manzili:

Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5458.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50745 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz